



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI



*«Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni
himoya qilish» kafedrasi 5620100-Agrokimyo
va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi
bakalavriat bitiruvchisi*

BAXTIYOROV SHUHRAT ISMOILOVICH

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**Mavzu: Qo'shrabot tumani sharoitida qattiq bug'doy azotli oziqlanishiga o'g'it
me'yorlarining ta'siri.**

Ilmiy rahbar, professor _____ F. H. Hoshimov

*Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo,
tuproqshunoslik va o'simliklarni
himoya qilish kafedrasi yig'ilishi-
da muhokama qilindi va DAK himoya-
siga tavsiya etildi. Kafedra mudiri,
dosent _____ A.O'.Maxmatmurodov
«___» _____ 2012 yil
Bayonnoma № _____*

*Agronomiya fakulteti
dekani, dosent*

_____ M. A. Hayitov

«___» _____ 2012 y

SAMARQAND-2012

QISQARTIRILGAN TERMINLAR RO'YXATI

Qisqartmalar:

O'z QSXV- O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Sam QXI- Samarqand qishloq xo'jalik instituti

O'zPTITI- O'zbekiston paxtachilik ilmiy tekshiri instituti

J: -jurnal

Sb.- sbornik

Sh. – Shahri

Y. – yil

Yy. – yillar

S. – stranisa

B. – bet

Birliklar:

Mg- milligramm

G-gramm

G/sm³ – gram santimetr kub

G/sm² gram santimetr kvadrat

G/m² – gram metr kvadrat

Mg/kg- 1 kilogrammda milligramm

Kg-kilogramm

S/ga-sentner/gektar

S-sentner

T- tonna

T/ga- 1 gektardan tonna

Ga- gektar

G/l – gektar/litrda

Mln.-million

Mm-millimetr

Sm-santimetr

Sm² – santimetr kvadrat

Sm³ – santimetr kub

M- metr

M²- metr kvadrat

M³- metr kub

⁰S- Selsi bo'yicha daraja

% -foiz

Simvollar:

EAF₀₅- Eng kam aniqlikdagi farq,

R %- tajriba aniqligi, foiz hisobida

M U N D A R I J A

KIRISH.....	7
I. ADABIYOTLAR SHARHI.....	10
II. TADQIQOT O'TKAZISH OBYEKTI, SHAROITI VA USLUBI	
II.1. Tajriba obyekti va uslublari.....	22
II.2. Tuproq va ob-havo sharoitlari.....	28
II.3. O'rganilgan bug'doy navining qisqacha tavsifi.....	34
II.4. Tajribada qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlar.....	35
III. TADQIQOT NATIJALARI	
III.1. Mineral o'g'itining tuproqdagi harakatchan oziq moddalar miqdoriga ta'siri.....	38
III.2. Urug'larning dala unuvchanligi.....	41
III.3. Azotli o'g'itlarning bug'doy yer ustki qismi va ildiz tizimining shakllanish xususiyatlariga ta'siri.....	42
III.4. Bug'doy tarkibidagi azot va o'g'it tarkibidan azotni o'zlashtirish.....	44
III.5. Azotli o'g'itlarning bug'doy hosili shakllanish xususiyatlariga ta'siri.....	46
IV. TAJRIBADA QO'LLANILGAN AZOTLI O'G'ITLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	50
V. FERMER XO'JALIKLARIDA MINERAL O'G'IT QO'LLASHNING EKOLOGIK MUAMMOLARI.....	52
VI. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI	55
VII. MAMLAKATNI MODERNIZASIYA QILISH KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA USTIVOR VAZIFALARI.....	60
VIII. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING IJTIMOIIY IQTISODIY AHAMIYATI VA MAZMUNI.....	62
IX. 2012 YIL VATANIMIZ TARAQQIYOTINI YANGI BOSQICHGA KO'TARADIGAN YIL BO'LADI.....	67
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	76

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77
ILOVALAR (INTERNET MA'LUMOTLARI).....	83

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimi-dagi ilmiy va oliy ta'lim muassasalarida 2010 yilda 7 ta davlat ilmiy-texnik dasturlari asosida tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar qishloq xo'jaligining donchilik va boshqa sohalarini yanada rivojlantirishga, dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, yer, suv, mahalliy va mineral o'g'itlar hamda boshqa moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash kabi muhim masalalarni yechishga qaratildi.

2010 yilda soha olimlari tomonidan agrar islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qishloq xo'jaligi fani oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi hamda quyidagi asosiy natijalar olindi:

Sug'oriladigan sharoitga mos qattiq bug'doy navlarini yaratish maqsadida biologik va xo'jalik belgilari bilan bir-biridan farq qiladigan hamda qimmatli belgi va xususiyatlariga ega, yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli, don sifati talabga javob beradigan qattiq bug'doy nav va liniyalari o'rtasida duragaylash ishlari olib borildi. Eng yuqori hosildorlik "Qaxrabo" navida 56,2 sentnerni tashkil etib, sinovdagi "Sadaf" navida 55,6, "Lek-2134p303" liniyasida 54,9, "Lelyok" navida 54,3, "Nikolasha" navida 54,2 sentnerni tashkil etdi. Avlodlarini sinash ko'chatzoriga "Qaxrabo" navidan 600 ta, "Sadaf" navidan 300 ta, "Olmos", "Nikolasha", "Krassar", "Lelyok" navlaridan 500 tadan tipik boshhoqlar tanlab olinib birinchi yigi avlodlarni sinash ko'chatzori tashkil etildi.

Yangi navlar yaratish va seleksiyaga birlamchi manbalar ajratish uchun sug'oriladigan yerlarda yumshoq bug'doyning 2700 ta, lalmi yerlarda esa yumshoq bug'doyning 316 ta, sug'oriladigan yerlarda qattiq bug'doyning 296 ta, lalmi yerlarda qattiq bug'doyning 178 ta, jami bug'doyning 3450 nav namunalarining sinovlari olib borildi. Yumshoq bug'doyning 38 ta nav namunalari sariq va qo'ng'ir zang kasalligiga dala sharoitida chidamliligini nomoyon etdi. Qattiq bug'doyning 286 ta nav namunalaridan 80 tasi erta, 128 tasi o'rta, 78 tasi esa kech pisharligi aniqlandi. Shularni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasida don mustaqilligiga erishish izchillik bilan amalga oshirmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti I. A.

Karimovning tashabbusi bilan sug'oriladigan yerlarda boshqoqli don ekinlari, asosan, bug'doy ekiladigan maydonlar kengaytirildi va Respublika aholisini donga bo'lgan ehtiyojini Respublikamizda yetishtirilayotgan bug'doy doni hisobiga qondirish uchun sug'oriladigan yerlarda bug'doy maydonlarini kengaytirish, hosildorligini oshirish, don sifatini yaxshilash, yangi navlarni yaratish, ilmiy asoslangan o'stirish texnologiyasini ishlab chiqish va ularni joriy etish juda muhimdir. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish 1171,7 ming tonnadan, shu jumladan, azotli o'g'itlar – 924,3, fosforli o'g'itlar – 139,4, kaliyli o'g'itlar – 108 ming tonnadan oshdi. Shuningdek, agrar sektorda foydalaniladigan keng turdagi ozuqa fosfatlari, karbamid-ammiakli selitra, trinatriyfosfat va boshqa turdagi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish ham o'zlashtirildi. Oxirgi yillarda Qizil-qum fosforit konida xomashyo olish va uni boyitish amalga oshirildi. Dexqonobod kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish birlashmasi o'z faoliyatini boshladi. Xar yili g'alla ekinlarining xar gektariga 180 kg/ga azotli, 120 kg/ga fosforli va kaliyli o'g'itlar berilayapti. O'simlik talabiga nisbatan azotli o'g'itlar berilmayapti.

Respublikamizda sug'oriladigan yerlarda ekish uchun davlat reyestriga kiritilgan bug'doy navlarining potensial hosildorligi gektaridan 100-120 sentnerdan kam bo'lmaydi. Shunga qaramasdan, sug'oriladigan yerlarda juda ko'p xo'jaliklarda kuzgi bug'doy hosildorligi o'rtacha gektaridan 30-40 s ni tashkil etmoqda. Yetishtirilgan donning sifati esa ko'p holllrda non yopish va makaron ishlab chiqarish sanoatining talablariga to'liq javob bermaydi. Buning asosiy sabablaridan biri, kuzgi bug'doy o'stiriladigan mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda, ilmiy asoslangan, o'stirish texnologiyalarining ishlab chiqilmaganligidadir.

O'zbekistonning aksariyat g'alla maydonlarida tuproq tarkibida azot miqdori oz, shuning uchun azotlt o'g'itlarni ilmiy asoslab qo'llash ekinlari hosildorligiga ta'sir qiluvchi eng yaxshi omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi:

1. Azotli o'g'itlar Qo'shrobd tumanining sug'oriladigan bo'z tuproqli yerlarida qattiq bug'doyni kuzda ekilgan Aleksandrovka navini yer ustki qismlarini shakllanish qonuniyatlariga, o'simliklarni qishga chidamliligiga, hosil strukturasiga, hosildorligiga, don sifatiga va azot o'zlashtirishiga ta'sirini o'rganish.

2. Azotli o'g'itlarni Aleksandrovka navini unib chiqishi, qishda saqlanishi, sovuqqa chidamligi, o'sishi, rivojlanishi, tuproq tarkibida azot dinamikasi ta'sirini aniqlash.

3. Azotli o'g'itlarni don ta'rkibidagi oqsil, klekovinaga o'zaro bog'liqligi va ularning o'simliklarda quruq moddalarni va qand moddasini hosil bo'lishi va to'planishi, bularni don hosili hamda sifat ko'rsatkichlarini shakllanishiga ta'sirini o'rganish;

4. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida o'rganilgan va aniqlangan texnologik usullarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash, hamda iqtisodiy jihatdan eng maqbul azotli oziqlanish me'yorlarini ishlab chiqishga tavsiya etishdan iborat.

Tajribaning vazifalari Azotli oziqlantirish o'simlik talabi darajasida berilgan sharoitda berilganda o'simlik o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri hamda maqbul me'yorni aniqlash

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Qo'shrobd tumani sharoitida qattiq bug'doyni azotli oziqlanishiga o'g'it me'yorining ta'siri ilk marotaba o'rganilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va hajmi. Ish kirish, IX ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. U 122 bet kompyuter tekstidan va internet ma'lumotlari 39 betni tashkil etadi. 14 ta jadvallarni o'z ichiga oladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 80 tadan iborat.

I. ADABIYOTLAR SHARHI

I.1. Mineral o'g'itlarining turli me'yorlari qo'llanilganda kuzgi bug'doy, o'siishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri

Azotli o'g'itlarni xar-xil bug'doy turlari va navlariga ta'siri bo'yicha (olimlarni ro'yxati) ilmiy ishlar o'tkazilganlar. Aksariyat ishlarda azotli o'g'itlar o'simliklarni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy ta'siri aniqlanadi.

Bug'doydan yuqori don hosili olishda ilmiy asoslangan holda o'g'it qo'llash muhim omillardan hisoblanadi. Masalan, o'g'itlash bahori bug'doy don hosildorligini 2-3 barobar, sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doy hosilini esa gektaridan 15-20 sentnerga oshiradi. Tuproqqa solingan har 1 kg NPK ta'sir qiluvchi modda hisobiga kuzgi bug'doy o'rtacha 6,2 kg dan qo'shimcha don beradi. V.Djaqishev, N.Andrionov, (1991).

D. Peric, (1983) tajribalari natijalari ko'rsatadiki, azotli o'g'itni turli dozalari bug'doyning mahsuldor tuplanishi, boshhoqdagi don, 1000 ta don massasiga sezilarli ta'sir etmaydi.

Azotli o'g'itlarni qo'llash bug'doyning suvga talabini kuchaytiradi, maydon birligida ekinlar siyraklashishi va boshhoqlar sonining kamayishiga yo'l quymaydi, ammo T.X Xujaqulov, (1991) ma'lumotlarida esa 1000 ta don massasi kamayadi.

A. Laman va boshqalar (1987) o'simlikda azot yetishmasligi va xaddan ziyod bo'lishi tashqi ko'rinishidan sezilarli, azot yetishmaganda o'simlik yomon o'sadi va rivojlanadi, qisqa va ingichka poya hosil qiladi, barglari mayda och-yashil rangda bo'ladi. Azotli o'g'itlar ko'p berilsa vagetativ massa miqdori oshadi, pishish kechikadi.

Azotli o'g'itlarni yuqori dozalarda qo'llashning salbiy ta'sirini bir qator tadqiqotchilar glevodlarning qish vaqtida tez taqsimlanishi va o'simlikning uyquga ketmasligi bilan tushuntiradilar. V.P. Bondarenko, 1980

Undan tashqari, kuzda azotni yuqori dozada solish, yer ustki massasining haddan ziyod hosil bo'lishiga va ekinning nobud bo'lishiga olib keladi. D. V. Shtrausberg, (1985)

K.Avdonin, (1954) Ma'lumotlariga ko'ra azot yetishmasligi natijasida tuplanishi va o'simlik barglari hosil bo'lishi kamayadi, hamma fiziologik jarayonlar buziladi, oqsillar sintezlanishi keskin sekinlashadi.

M.Kostic, (1985) esa azotli o'g'itlar don hosilining oshishini bir kvadrat metrdagi boshqalar soni va 1000 ta don massasi ko'payishi hisobiga oshishini aytib o'tgan;

V.V.Serlingni (1965) ko'rsatishicha, rivojlanishning dastlabki davrda azot yetishmasligi hosildorlikni kamaytiradi undan keyin azotni solish bilan hosildorlikni yana oshirish imkoni yuq. Shu olimning ma'lumotlariga ko'ra o'g'itlash me'yori ekish chuqurligini va ekish me'yori o'rganib, N-160, P-90, K-90, kg/ga bo'lganda, azotni uch muddatda bahorda 30 kg/ga naychalashda 60 kg/ga va boshqalashda 70 kg/ga berilganda yuqori hosil berishini aniqlashdi.

K.S.Ormandji va boshqalar (1988) tajribalarida ekish chuqurligi nam yetarli bo'lganda 2-3 sm, nam kam bo'lganda 5-6 sm afzalligi aniqlangan.

M.Tojiyev, O.Xujmonov (1998) ma'lumotlariga ko'ra Qashkadaryo viloyati sharoitida optimal ekish me'yori sug'oriladigan yerlarda 200 - 250 kg/ga, azot bilan o'g'itlash me'yori 150 - 200 kg/ga ekanligini ko'rsatadilar. Bu olimlarning fikricha urug'lar me'yori oshishi va o'g'itlarning kamayishi hosildorlikni va hosil sifatini pasayishiga olib keladi.

Tuproqda azot miqdorining me'yordan ortiq bo'lishi bug'doyning kuchli vegetativ o'sishiga, tuplanishiga va yotib qolishiga olib keladi. Natijada don sifati yomonlashadi, u puch bo'lib qoladi, hosildorlik pasayadi (Ya.V. Gubanov va boshkalar, 1983)

M. Mosolov, (1979). Xabar berishi bo'yicha o'g'itlar me'yori kamayganda o'simlik o'sish davri qisqarishi tufayli reproduktiv mahsuldor organlar ancha erta shakllanadi va biologik qoidaga muvofiq hosil pasayadi.

Bug'doyni o'g'itlash hamma tuproqlarda samaralidir. Samarqand viloyatidagi ko'p yillik dala tajribalari va amaliyot ko'rsatdiki, donli ekinlarga o'g'it qo'llanmaganda hosildorligi gektaridan 0,8-1,4 t bo'ladi. N.X. Xalilov, (1982)

Azotli o'g'itlarni to'g'ri qo'llash don hosildorligini oshiradi, uning ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, tuproq unumdorligini, bug'doyning zararkunanda va

kasalliklarga chidamligini oshiradi, ekinlarning qishlashga ijobiy ta'sir etadi. R.Tolkachev, S.Siddiqov, (1991), N.X. Xalilov, (2006).

T.X. Xodjaqulov, 1992; N.X. Xalilov, (1994); P, Bobomirzayev, 2006,2008) Samarqand viloyatida bajarilgan tadqiqotlarda tovar don sifatini oshirishda qo'llanilgan muhim ahamiyatga ega agrotexnika lozim bo'lib, bunda asosiy rol azotga tegishlidir. Bu olimlar tajribalari shuni ko'rsatadi: Yuqori sifatli don shakllanishida tuproqdagi azotning miqdori muhim, omillar shuni belgilab o'tadiki, bug'doy oqsilligi muammosi azot miqdoriga bog'liq. Uni faqat azotli o'g'itni tuproqqa solishni ko'paytirishga ilmiy yondosh yo'li bilan yechish mumkin. Sug'oriladigan yerlardagi tajribalarda yuqori dozadagi o'g'itni solish (gektariga 240 kg) tufayli intensiv tipdagi bug'doy navlaridagi donning oqsili sezilarli darajada oshishiga erishiladi. Solingan azot o'simlik tomonidan asosan don hosilini (hosilni 52-74% ga oshirdi) ko'paytirishga va kam darajada donning oqsil miqdorini ko'paytirishda foydalanildi. N.X. Xalilov (1987)

Z.Ziyadullayevning, (1999) Jizzax viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida tajriba natijalarining yakuniga ko'ra, kuzda ekilgan bug'doy uchun ekishdan oldin $R_{60} K_{90} + \text{lifogum} + N_{100} + \text{ATG}$ qo'llanilganda, tavsiya etilgan $N_{180} P_{90} K_{60}$ nisbatan gektaridan 4–6 sentner qo'shimcha don hosili olingan.

Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra qattiq bug'doyning «Istiqlof» navida azot me'yorini gektariga 60 kg dan 210 kg gacha oshirganda hosildorlik oshib bordi. Yuqori va sifatli don hosili azotli o'g'itni gektariga 210 kg me'yorda bo'lib berilganda shakllandi. Fon+ N_{240} variantida o'simlik g'ovlab ketishi, asosiy oziqani vegetativ organlar tomonidan o'zlashtirilishi, yotib qolishi tufayli hosildorlik pasaydi. Tajribalarda azotli o'g'it me'yorlarining oshishi bilan 1000 ta don massasi, don naturasi pasayib borishi, donning shishasimonligi dondagi oqsil va kleykovina miqdori esa, oshib borishi kuzatildi. (P.X.Bobomirzayev, 2006)

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida yerdan yil davomida uzluksiz foydalanib, bir yilda ikki marta don hosili yetishtirishda azotli o'g'itning har xil meyorlarini asosiy ekin sifatida ekilgan kuzgi bug'doyga tasiri va uning ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirilgan tariqqa keyingi tasiri buyicha tajribalari

natijalarida ko'rsatishicha, azotli o'g'itlar meyorlarini oshib borishi natijasida kuzgi bug'doyning hosildorligi va don sifatining oshishi aniqlangan. Lekin, kuzgi bug'doyga azotning samarali tasiri 100-150 kg/ga meyorda ko'proq namoyon bo'ldi. (N.I.Irnazarova, 2002). Samarqand viloyatida qattiq bug'doy bilan tajriba natijalari ko'rsatdiki, azotli o'g'itning dozasini oshirib borish bilan xlorofilning miqdori, barg yuzasi, fotosintetik potensial, fotosinez sof mahsuldorligi oshdi. Sug'orishsiz nazorat variantda, azotli o'g'it miqdorini gektariga 120 kg dan 180 kg ga oshirilganda barg yuzasi oshmagan, fotosintez sof mahsuldorligi, fotosintetik potensial, FAR dan foydalanish koeffitsiyenti pasaygan. Don hosilini ko'payishi o'simlikni namlik bilan ta'minlanishi va azotli o'g'it dozasini oshirish bilan amalga oshirish mumkin. K. Ravshanov, N.X. Xalilov, P. Bobomirzayev, N. Turdiyeva, (1999)

Azotli o'g'itlarning yillik normasi vegetasiya davrida to'g'ri muddatlarda qo'llash katta ahamiyatga ega.

T.N. Rakitina, V.A. Ursanov, (1986) $N_{120}R_{90}$ dozasini bo'lib, ekishdan oldin va bahorda oziqlantirish bilan berishni, S.D. Lysogorov, V.G. Chernenko (1985)lar esa kuzda R_{120} , erta bahorda N_{30} , naychalash fazasida N_{60} va boshqalash fazasida N_{30} berishni tavsiya etgan.

G.K. Qurbonov va boshqalar (1984) aniqlashicha, O'zbekistonning janubiy-g'arbiy qismida yangidan o'zlashtirilgan sug'oriladigan yerlarida bug'doyni azotli o'g'itlar bilan bo'lib oziqlantirish (N_{180}) har sug'orishdan oldin gektariga 60 kg ta'sir etuvchi modda hisobida o'tkazish samarali hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarda azotli o'g'itlar turlarini to'g'ri qo'llash ham katta ahamiyatga ega.

Kvasov V.A. (1991) ning ta'kidlashicha, kuzgi bug'doy yetishtirishda ammoniyli o'g'itlarga (sulfat ammoniy va boshqalar) nisbatan nitratli shakldagi o'g'itlardan (ammiakli selitra va boshqalar) foydalangan ma'qul. Nordon tuproqlarda ammoniy sulfat 25-30%ga nitratli shakldagilarga nisbatan samarasi kamligi aniqlangan.

Bug'doydan yuqori hosil olishda azotli o'g'itdan iqtisodiy va agronomik to'g'ri foydalanish zarur. Chunki dala sharoitida o'simlik mineral o'g'itlardan faqat 30-40% ini foydalansa, 15-25% tuproqqa birikadi, 6-15% i yuviladi, 15-20% esa gaz holatda birikma shaklida yo'qoladi.

V.S. Ruban va boshqalar, (1981) Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini hamma tuproq tiplarida mineral elementlar bilan oziqlanish darajasi aniqlaydi. Ko'p yillik tajribalar va amaliyot ko'rsatadiki, azotli o'g'itlarning samaradorligini fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan qo'shib qo'llaganda oshib boradi. O'g'itlarni to'liq (NPK) ta'siri urug'larning o'sish kuchini taxminan 5% ga, unuvchanligini 3% ga, hosildorlikni 28-30% ga oshiradi. O'g'itlarni (NPK) solish miqdorlari va muddatlari samaradorligi tuproq-iqlim sharoitlariga, nav xususiyatlariga, bug'doy o'simligining nam bilan ta'minlanganligi va boshqa omillarga bog'liqdir.

N.M. Shevchenko va boshqalar (1985) Turli mintaqalarda o'g'it normalari farq qiladi Krasnodar o'lkasida $N_{120}P_{90}K_{60}$, Shimoliy Kavkazda - $N_{120}P_{60-120}$ (), Krimda - $N_{150}P_{90}$ (Nikolayev, 1983), Xerson viloyatida - $N_{150}P_{90}$ (Netis, Padkopay, 1981), Moldaviyada - $N_{120}P_{90}$ (Labujniy, Kiver, 1978), janubiy Kozog'istonda - $N_{150}P_{90}$ (Xafizov, 1976), Qashqadaryo viloyatida - $N_{210}R_{150}K_{70}$ (P.Bobomirzayev, 2007), Jizzax viloyati lalmikor yerlarda - $N_{90}P_{90}K_{50}$ (Ataboyev, Lavronov, 1969), $N_{100}P_{60}K_{60}$ (Mamirov, 1976), $N_{150}P_{90}K_{60}$ (Fedotov, 1984), Samarqand viloyatida - $N_{180}P_{70}K_{70}$ (T.Xodjakulov, 1991), $N_{200}P_{90}K_{70}$ (N.X.Xalilov, 1994), $N_{200}P_{150}K_{100}$ (Turayev, 1999), $N_{225}P_{90}K_{60}$ (I.Xodjayeva, K. Ravshanov, 2004), Surxandaryo viloyatida - $N_{170}P_{54}K_{60}$ (Uchuatkin, 1987), Toshkent viloyatida - $N_{150}P_{100}K_{75}$ (Ataboyeva, Xudoykulov, 2004) me'yorda o'g'itlashni tavsiya etishganlar.

MDH da fosforli o'g'itlar G'arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan 2-3 marta kam (39 kg/ga) solinayapti. Fosforning shunday dozada qo'llash shunga olib keldiki, 76 mln ga haydaladigan yer (35% tekshirilgan maydon) fosfor bilan kam ta'minlangan hisoblanadi. (O.V.Sdobnikova, B.A.Sumiyenisa 1991)

Yigirma birinchi asr boshida dunyo bo'yicha fosforli o'g'itlarni ishlab chiqish quvvati 57% ga oshishi kerak. Dunyoda fosfor uni ishlab chiqish quvvati 288 mln. t. ga yetdi, bu 1985 yil ko'rsatgichiga nisbatan 1,5 marotaba yuqoridir. Fosfor bug'doy o'simligida oqsil va boshqa organik moddalarni hosil qilish uchun kerak. Shuningdek, fosfor nafas olish, assimilyasiya va o'simlikda uglevodlar transporti jarayonlarida muhim rol uynaydi. U ildiz tizimi rivojlanishini kuchaytiradi, o'simlikni qishga chidamligini oshiradi hamda pishishini tezlashtiradi. Fosforli

birikmalar oksidlanishida hamma tirik organizmlar uchun zarur. Fosfor kislotasiz birorta ham tirik xujayra mavjud bo'lmaydi. (Taran, Ponov, 1991)

Nukleotidlar – xujayra yadrosining asosiy moddasidir, u o'zining tarkibida fosfor kislotalarini saqlaydi. Fosfor o'zi bilan o'simlikda bir qator boshqa organik moddalarni fitin, lesitin va saxarofosfatlarni saqlaydi. O'simlikni oziqlanishida fosfor balansi oshishi, xujayralarda oksidlanishni, parchalanishni kuchaytiradi, bu esa energiya ajralib chiqishini oshiradi. E.D. Adinyayev, (1985)

N.F.Dorofeyev va boshqalar, (1983). Fosfor o'simlikda bo'ladigan urug'lanish va boshqa fiziologik jarayonlarni yuzaga kelishida katta ahamiyatga ega. O'simlikka fosforning eng ko'p talab qiladigan birinchi davri bu unib chiqishida, ya'ni kuchsiz ildiz tizimiga ega bo'lganda kuzatiladi. O'simlikning fosforni eng yuqori talab qiladigan ikkinchi davri gullash va don hosil qilishdir.

Tuproqda fosforning yetishmasligi o'simlik o'sishi va rivojlanishini sekinlashtiradi. Fosfor yetishmaganda o'simlik bargi qizaradi va asta-sekin quriydi. O'simlikning nitratlardan foydalanishida fosfor katta ahamiyatga ega. Agar u yetishmasa, azotdan foydalanish ushlanib qoladi, oqsil sintezi to'xtaydi va o'simlikda oqsil tarkibiga kirmagan azot miqdori oshadi, uning yetishmasligi organizmda moddalar almashinuvini bo'zadi. O'simlikning dastlabki rivojlanishi davrida fosforning yetishmasligini keyin fosfor bilan yaxshi ta'minlanganda ham to'g'rilab bo'lmaydi.

I.M. Kodanov, (1976). Fosforli o'g'itlarning ijobiy ta'sirini birinchi navbatda uning o'simlikda azot almashinuvi va oqsil sintezida ishtiroki bilan tushuntirish mumkin. O'simlikning azot bilan optimal oziqlanishida ham fosforning keskin yetishmasligi nuklein kislotalar sinteziga va u bilan oqsil sinteziga salbiy ta'sir etadi. Fosfor o'simlik organizmida muhim hayotiy jarayonlarni ya'ni fotosintez va nafas olishni faollashtiradi

O'simlikning dastlabki rivojlanish fazalarida suvda eriydigan fosforli o'g'itlar shakllarining katta dozalari donli ekinlar pishishini tezlashtiradi, bu esa fosforni kimyoviy energiya manbai sifatida ishtiroki bilan bog'liq. Fosforli o'g'itlar bug'doy donida kraxmalning miqdorini oshiradi. Shuningdek moy, kul elementlarini oshishi ham kuzatilgan. Unning non yopilish sifatleri fosforli o'g'itlar ta'sirida qoidaga

muvofig pasayadi, ayniqsa har yili bir tomonlama uni solishda. Bu esa fikrimizcha, dondagi oqsil miqdorining pasayishi tuproqdagi azotning yetishmasligi bilan bog'liqdir.

Tojikiston sharoitida 60 kg/ga ta'sir qiluvchi modda hisobida azot va fosfor solish o'g'itlanmagan yerlarga nisbatan bug'doyda suv sarflanishini 2-4 martaga kamaytirgan. Shuning uchun atmosfera yog'inlari yetarli bo'lmagan miqdorda tushadigan (250-350 mm) yerlarda ham bug'doyga oz miqdorda bo'lsa ham azotli va fosforli o'g'itlarni gektariga 30 kg dan ta'sir qiluvchi modda hisobida solish kerak. Bunday yerlarda ekinzorning qurg'oqchilikka chidamligini oshirishda fosforni solish muhim ahamiyatga ega. (L.Karamxudoyev, A.F. Lashkaryova, 1986).

V.G Mineyev, va boshqalar, (1977) Bir qator tadqiqotchilarning qayd etishiga, o'suv davri boshlanishida, boshq va boshqacha shakllanishida tuproqda azot va fosfor nisbati to'g'ri bo'lishi kerak. O'simlik hayotining boshlang'ich davridan fosfor va fosfor-kaliy bilan optimal oziqlanishi, yaxshi ta'minlanishi ildiz tizimini yaxshi rivojlantiradi, o'simlikni qishga chidamligini oshiradi.

Bug'doy organogenezing birinchi davrida fosforgia talabchan bo'ladi. Shuning uchun fosforli o'g'itlarni shudgor ostiga o'z vaqtida solmaslik bug'doy don hosildorligini pasayishiga olib keladi. (V.F. Sayko, 1989).

A.A.Kvasov va boshqalar (1991) fosforli o'g'itning juda past o'zlashtirilishini shunday tushuntiradiki, fosfor kam harakatchan va amalda qanday qatlamga solinsa shu yerga birikkan bo'ladi. Chirindi va harakatchan fosfor shakllarining kamayishi tuproqning unumdorligini pasayishiga olib keladi.

I.N. Chumachenko va boshqalarni (1991) aniqlashicha, bug'doydan yuqori hosil olishda tuproqdagi harakatchan shakldagi fosfor miqdori cheklovchi omil hisoblanadi va u chim-podzol tuproqlarda 100 mg/kg dan oshmaydi. U, shu bilan birgalikda tuproqda 200 mg/kg harakatchan fosfor bo'lsa, gektaridan 30 s va undan yuqori don hosilini barqaror olish mumkinligini ta'kidlaydi. Fosfor unini gektariga 400 kg dozada solish bug'doydan gektariga 2,8 sentner qo'shimcha hosil olishni ta'minlaydi.

G. Belyayev, (1992) o'zining ko'p yillik tadqiqotlariga asosan shunday xulosaga keladi: fosforning miqdori har kg tuproqda 35 mg bo'lishi uchun gektariga

25 kg fosfor solinishi kerak. Shundagina hosil oshishi mumkin deb hisoblaydi. Muallif bir kilogramm tuproqda 24 mg fosfor bo'lishi g'alla uchun kritik ya'ni kam miqdor deb hisoblaydi.

Hosil shakllanishida qatnashgan mineral o'g'itlarning to'liq hissasi 24% ni tashkil etadi. Bunda olingan qo'shimcha hosil to'liq o'g'it hisobidan fosforning hissasi 39,5% ni tashkil etadi. (Tuproq – iqlim sharoitlariga bog'liq holda 15-61% oralig'ida bo'ladi). O'simlikning mineral o'g'it fosforidan foydalanish koeffitsiyenti yana past, 10-20%ni tashkil etadi. (R.Derjavin, 1992).

«Tirik organizmda hech bir narsa fosfor ishtirokisiz yuz bermaydi: assimlyasiyaning boshlanishi ham, ko'p sonli parchalanishlar qaysiki kimyoviy, elektrik, mexanik va termik energiyalarning ajralishi, skeletning hosil bo'lishi ham, kraxmal yoki yog' to'planishi ham, oqsil moddalar yangi molekulalarini sintezi ham, irsiy xususiyatlarning berilishi ham» (Polonovskiy, 1985).

Tuproqda fosforning yetishmasligi o'simlik o'sishi va rivojlanishini sekinlashtiradi. Fosfor yetishmaganda o'simlik bargi qizaradi va asta-sekin quriydi. O'simlikning nitratlardan foydalanishida fosfor katta ahamiyatga ega. Agar u yetishmasa, azotdan foydalanish ushlanib qoladi, oqsil sintezi to'xtaydi va o'simlikda oqsil tarkibiga kirmaydigan azot miqdori oshadi, uning yetishmasligi organizmda moddalar almashinuvini buzadi. O'simlikning dastlabki rivojlanishi davrida fosforning yetishmasligini keyin fosfor bilan yaxshi ta'minlanganda ham to'g'rilab bo'lmaydi (Dorofeyev va boshqalar, 1983).

D.S. Sattorov va boshqalar (1991) hisoblashicha, mineral o'g'itlarni qo'llashda tuproqning agrokimyoviy harakteristikasini hisobga olgan holda chegaralash kerak, qaysiki bu tuproqning samarali unumdorligini yunalishini boshqaradi va qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini oshiradi.

N.L. Zglinskaya, (1977) ta'kidlashicha, fosforli o'g'itlarni solish tuproqning fosfat rejimini yaxshilaydi. Ammo o'simlikning fosforli o'g'itdan foydalanish koeffitsiyenti past bo'ladi. Bu O'rta Osiyo tuproqlari tarkibida magniy va kalsiy karbonat tuzlarining miqdori yuqori bo'lishi bilan tushuntiriladi.

Shunday qilib, adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bug'doy hosildorligini oshirishda qo'llaniladigan fosforli o'g'itlar me'yori va shakli tuproq

turlari, unumdorligi, sho'rlanganligi, nam bilan ta'minlanganligi va boshqa omillarga bog'liq holda intensiv tipdagi bug'doylarga solinishi lozim.

Kaliy o'simlikda baquvvat ildiz tizimi rivojlanishini, hujayrada shakar va boshqa plastik modda to'planishini taminlaydi, noqulay ob-havo sharoiti va kasalliklarga chidamliligini oshiradi. (V.F. Sayko, 1989)

Don ishlab chiqarishni ko'paytirishda mineral o'g'itlarni to'g'ri nisbatda qo'llash muhim omildir. Kaliyli o'g'itlar azot va fosfordan foydalanishni yaxshilaydi, o'simlikda uglevodni sintez bo'lishi, harakatlanishida muhim rol o'ynaydi, ildiz orqali namlikni yutilishiga ko'maklashadi, barglardan namlikni bug'lanishini kamaytiradi, o'simlikning suv balansini boshqaradi, kasalliklarga chidamliligini oshiradi, pishishini tezlashtiradi. (E.D. Adinyayev, 1985).

E.D. Dorofeyev va boshqa. (1983). O'simlik yosh organlari tarkibida kaliy bo'lishi bilan ustunlikka ega. Kaliy barglarda va ko'payish organlarida, hujayra shirasida va plazmada ko'p bo'ladi. Kaliy asosan o'simlikda suvda eriydigan shaklda bo'ladi. Kaliy o'simlikning butun hayotida uning rivojlanishiga ta'sir qiladi, uglevodlar hosil bo'lishiga ko'maklashadi. O'simlik kaliy bilan yaxshi oziqlansa sovuqqa, qirg'oqchilikka va kasalliklarga chidamliligi oshadi. U urug' hosil bo'lishi va pishishini yaxshilaydi, o'simlikning azotdan ayniqsa ammaiakdan yaxshi foydalanishiga imkon beradi, o'simlikning yon ildizlari hosil bo'lishiga qulaylik tug'diradi

A.A. Sozinov, (1979) fikricha, kaliyning yetishmasligi o'simlikning sarg'ayishiga olib keladi bunda mayda puch don shakllanadi. Ko'pchilik kuzgi bug'doy yetishtirilidigan tumanlarda don sifatiga kaliyli o'g'it azotli yoki fosforli o'g'itlardek ta'sir etmaydi. Ammo, bir qator tajribalarda (A.A. Sozinov, Kozlov 1970; A.A. Sozinov 1979) aniqlashicha, qora tuproqlarda kaliyli o'g'itlarni azotli o'g'itlar bilan birgalikda solinganda ayrim xollarda faqat azot yoki azot, fosfor bilan solinganga nisbatan kleykovina miqdori va un kuchi oshishi kuzatildi.

K.P. Sobachkin va boshqalar (1991). Kaliyli o'g'itni qo'llash bug'doy hosildorligini gektariga 3 – 4,5 sentnerga oshiradi

Samarqand viloyati sug'oriladigan yerlarida olib borgan tajriba natijalari ko'rsatishicha, tuproq tabiiy unumdorligida (o'g'itsiz) bug'doy don hosildorligi

gektaridan 3,3 t tashkil qildi. Bug'doy hosildorligi $N_{200}R_{150}$ fonda 4,9 t/ga bo'ldi yoki nazorat variant (o'g'itsiz) ga nisbatan 1,6ga/t qo'shimcha hosil olindi. Kaliyli o'g'it meyorini K100-250 ga/kg oshirish bilan hosildorlik ham oshishiga olib keldi. M.M.To'rayev(1999y)

N.F. Dorofeyev va boshqalar, (1983).O'simlikka kaliyning kirib borishi o'sish va rivojlanishining birinchi kunidan boshlanib to gullashgacha davom etadi. Boshlang'ich fazalarda o'simlikda K_2O miqdori quruq modda hisobida 2,5 – 3,6 % va undan ko'pni tashkil etdi, to'liq pishish fazasida esa u 0,9 – 1,0% gacha pasayadi.

O'simlikning gullash yoki sut pishish fazasida maydon birligida K_2O mutloq hosil miqdori to'g'ri keladi. To'liq pishish fazasida u maydon birligi hisobida maksimal olib chiqib ketishga nisbatan 2 – 3 barobar kamayadi.

Kaliy miqdori yuqori bo'lgan tuproqlarda kaliyli o'g'itlar miqdorini aniqlashda F.V.Yanishevskiy (1982) tuproqdagi harakatchan zaxiradagi kaliyni past miqdorida esa, faqat almashinadigan kaliyni hisobga olishni tavsiya etadi.

Adabiyotlar sharxidan ma'lum bo'lishicha asosan azotni ta'siridan va kaliyli o'g'itlarni o'simlik o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri ko'p mintaqalarda o'rganilgan. O'g'itlar normalari, berish muddatlari, shakllari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Hamma tavsiyalarda o'g'itlarni tuproqqa berishi chuqur o'rganilgan. Adabiyotlarda ildizdan tashqari oziqlantirish va O'zbekiston sharoitida kompleks o'g'itlarni, tarkibida mikroelementlar bilan o'rganilmagan.

«Bug'doyni o'g'itlash hamma tuproqlarda samaralidir. Ko'p yillik dala tajribalari va amaliyot ko'rsatdiki, donli ekinlarga o'g'it qo'llanmaganda hosildorligi gektaridan 0,8-1,4 t bo'ladi (Dorofeyev va boshqalar, 1983). Ko'p yillik ma'lumotlarga ko'ra, hosilning 27-75 %i mineral o'g'itlarni to'liq qo'llash hisobiga shakllanadi, bunda tuproq iqlim sharoitlariga bog'liq holda azotning hissasi 17-74 % oralig'ida bo'ladi (Xalilov 1982; Basmanov Zimina 1991; Derjavin, 1992). Azot bug'doy don hosilini oshirishda oldingi o'rinni egallaydi (Buxarev , 1972; Xoshimov va boshqalar, 1990).

Azotli o'g'itlarni to'g'ri qo'llash don hosildorligini oshiradi, uning ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, tuproq unumdorligini, bug'doyning zararkunanda va

kasalliklarga chidamligini oshiradi, ekinlarning qishlashga ijobiy ta'sir etadi (Tolkachev, 1991; Xalilov 2006.).

N.Xalilovning (1994) qayd etishiga, azotli o'g'itlar barg fotosintez intensivligini uzaytiradi va don pishishini sekinlashtiradi.

Ko'p yillik (Xodjaqulov, 1992; Xalilov, 1994; Bobomirzayev, 2006) bajarilgan tadqiqotlarda tovar don sifatini oshirishda asosiy rol azotga tegishlidir.

Q.Ravshanov, N.Xalilov, P.Bobomirzayev, N.Turdiyeva (1999) tajriba natijalari ko'rsatdiki, azotli o'g'itning dozasini oshirib borish bilan xlorofilning miqdori, barg yuzasi, fotosintetik potensial, fotosinez sof mahsuldorligi oshadi. Ammo sug'orishsiz nazorat variantda, azotli o'g'it miqdorini gektariga 120 kg dan 180 kg ga oshirilganda barg yuzasi oshmagan, fotosintez sof mahsuldorligi, fotosintetik potensial, FAR dan foydalanish koeffisiyenti pasaygan. Don hosilini ko'payishi o'simlikni namlik bilan ta'minlanishi va azotli o'g'it dozasini oshirish bilan amalga oshgan.

P.Bobomirzayevning (2006) Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra qattiq bug'doyning «Istiqlol» navida azot me'yorini gektariga 60 kg dan 210 kg gacha oshirganda hosildorlik oshib borgan. Yuqori va sifatli don hosili azotli o'g'itni gektariga 210 kg me'yorda bo'lib berilganda shakllangan. Fon+N₂₄₀ variantida o'simlik o'sib ketishi, asosiy oziqani vegetativ organlar tomonidan o'zlashtirilishi, yotib qolishi tufayli hosildorlik pasaygan. Tajribalarda azotli o'g'it me'yorlarini oshirish bilan 1000 ta don massasi, don naturasi pasayib borishi, donning shishasimonligi, dondagi oqsil va kleykovina miqdori esa oshib borishi aniqlangan.

Hosil shakllanishida qatnashgan mineral o'g'itlarning to'liq hissasi 24 % ni tashkil etadi. Bunda olingan qo'shimcha hosil to'liq o'g'it hisobidan fosforning hissasi 39,5 % ni tashkil etadi (tuproq-iqlim sharoitlariga bog'liq holda 15-61 % oralig'ida bo'ladi). O'simlikning mineral o'g'it fosforidan foydalanish koeffisiyenti yana past, ya'ni 10-20 %ni tashkil etadi (Derjavin,1992).

Bir qator tadqiqotchilarning (Remeslo, 1982; Ganjara va boshqalar, 1991) qayd etishiga, o'suv davri boshlanishida, boshqoq va boshqoqcha shakllanishida tuproqda azot va fosfor nisbati to'g'ri bo'lishi kerak. O'simlik hayotining boshlang'ich

davridan fosfor va fosfor-kaliy bilan optimal oziqlanishi, yaxshi ta'minlanishi ildiz tizimini yaxshi rivojlantiradi, o'simlikni qishga chidamligini oshiradi.

Shunday qilib, adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bug'doy hosildorligini oshirishda qo'llaniladigan fosforli o'g'itlar me'yori va shakli tuproq turlari, unumdorligi, sho'rlanganligi, nam bilan ta'minlanganligi va boshqa omillarga bog'liq holda intensiv tipdagi bug'doylarga solinishi lozim.

Umuman olganda, kuzgi bug'doy yetishtirishda mineral o'g'itlarni qo'llash, uning don hosildorligi oshiradi. Ayni vaqtda ilmiy asoslangan o'g'itlash me'yori va nisbatlarini qo'llash uning don sifatini oshiradi. Don naturasi, shishasimonligi va boshqa texnologik ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Shu Bilan birga kuzgi bug'doy yetishtirishda azotli o'g'itlarni to'g'ri qo'llash ham qator ijobiy natijalarni beradi.

II. TADQIQOT O'TKAZISH OBYEKTI, SHAROITI VA USLUBI

II.1. Tajriba obyekti va uslublari

Olib borilgan tadqiqotlarni asosiy maqsadi Qo'shrobod tumani sharoitida qattiq bug'doy azotli oziqlanishiga o'g'it me'yorlarining ta'sirini o'rganish va tavsiyalar kiritish.

Qo'shrabot tumani sharoitida qattiq bug'doy azotli oziqlanishiga o'g'it me'yorlarining ta'sirini o'rganish uchun 2010-2011 yillar mobaynida dala, laboratoriya tajribalari Samarqand viloyatining Qo'shrobod tumani sug'oriladigan och-tusli bo'z tuproqli yerlarida o'tkazildi.

Tajriba obyekti qilib, Samarqand viloyatining Qo'shrobod tumani Ergash Jumanbulbul o'g'li nomli MMTP xududidagi sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar, qattiq bug'doyning "Aleksandrovka" navi urug'lik donlari ekildi. Tajriba qattiq bug'doy 4 ta variant 4 ta takrorlik asosida 2-xil oziqa muhit 1-xil oziq fonida bajarildi.

Kuzgi bug'doy o'simligi bo'yicha tajriba variantlar:

1- jadval

№	Variantlar		
1	Nazorat	3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀

O'tkazilgan dala tajribalarining tuproqlari, o'simlik materiallari, donning texnologik sifat ko'rsatkichlari tahlili Samarqand qishloq xo'jalik institutining Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish kafedrasida laboratoriyasida o'tkazildi.

Tajribada hisobga olinadigan maydonning kattaligi 4000 m² ga teng bo'lib, bir yarusli qilib joylashtirildi. Umumiy tajriba maydoni S= 8000 m², bir paykalcha maydon S =200 m². Tajribada mintaq uchun qabul qilingan agrotexnika qo'llanildi. Bug'doy o'simliklarini o'stirish shu sharoit uchun qabul qilingan texnologik jarayonlar asosida o'tkazildi. Qattiq bug'doy o'suv davrida, tuproq namligi dala nam sig'imining 70% dan kam bo'lmagan holda ushlab turildi. Buning uchun ekishdan oldin gektariga 1200 m³ me'yorida nam to'playdigan va vegetasiya davrda gektariga

700 m³ me'yorlarida atmosfera yog'in-garchiliklarni hisobga olgan holda 3 – 4 marta sug'orishlar o'tkazildi.

Vriantlarni paykallar bo'yicha joylashtirish sxemasi.

Variant №	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
Paykal №	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Qaytariqlar №	I				II				III				IV			

Tajriba maydonida o'g'it me'yorlarini va dozasining taqsimlanishi

2-jadval

№	Mineral o'g'itlar me'yorlari,	Shudgor ostiga, kg/ga		Ekish bilan bir vaqtda		Tuplanish fazasida	Naychalash fazasida	Boshoqlash fazasida
		P_2O_5	K_2O	N	P_2O_5	N	N	N
1	Nazorat	0	0	0	0	0	0	0
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	60	60	20	40	40	30	10
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	60	60	20	40	40	30	10
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	60	60	20	40	40	30	10

Mineral o'g'itlar, azot–140, 160, 180 kg/ga, fosfor–100 kg/ga, kaliy-60 kg/ga hisobida. Fosforli o'g'itlar ammosfos hisobida 2 marta shudgor oldidan 60 kg/ga, ekish bilan 40 kg/ga hisobida berildi. Kaliyli o'g'itlar kaliy xlorid hisobida shudgor oldidan 60 kg/ga me'yorida berildi.

Azotli o'g'itlar ammiakli seletra hisobida 4 marta, ekish bilan 20 % bahorda tuplanish fazasida 40 % ni, naychalashda davrida 30 % ni va boshqalash fazalarida 10 % ni berildi. Ilmiy tadqiqotimizda qattiq bug'doyning "Aleksandrovka" navi oktyabr oyining 5 kunida gektariga 5 mln dona unuvchan urug' hisobida ekildi. Qattiq bug'doyni ekish uchun qator orasi 15 sm, ekish SZ-3,6 seyalkada o'tkazildi. Ekish chuqurligi 4-5 sm qilib ekildi.

Tajribalarimizda ekilgan kqattiq bug'doy urug'larining o'sishi, rivojlanishi va mahsuldorligini o'rganish uchun quyidagi fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchashlar ishlari qishloq xo'jalik ilmiy tadqiqot instituti (1967 y)

- urug'larning dala sharoitida unuvchanligi va o'simliklar soni qishlash oldidan, qishlab chiqkandan keyin va hosilni yig'ishtirish oldidan. Bu ish 0,5 m² maydonda, diagonal bo'yicha 10 joydan olindi va hisoblab chiqildi;

- Fenologik kuzatishlar:

Tajriba paykalchasidagi umumiy tup soniga nisbatan.

-  Unib chiqishning boshlanishi - 25 %
-  To'liq unib chiqish - 75 %
-  Maysalashning boshlanishi – 25 %
-  To'liq maysalash – 75 %
-  Tuplashning boshlanishi – 25 %
-  To'liq tuplash – 75 %
-  Boshqalashning boshlanishi– 25 %
-  To'liq bashoqlashgacha– 75 %

Biometrik o'lchash ishlari

Bug'doy o'simligining biometrik ko'rsatkichlari 0,5 m² maydonchadan 4 qaytariqli qilib 10 kun oralig'ida hisobga olindi

Biometrik o'lchash ishlari har bir fenologik kuzatish vaqtida quydagilar o'lchandi:

- O'simlik bo'yi
- Maysa soni
- Barg soni
- Yon shox soni
- Poya vazni
- Ildiz vazni
- Bir tupning mahsuldorligi
- Maydonchaning hosildorligi

Biokimyoviy tahlil qilish:

- ☞ Bug'doy hosili va unga tug'ri keladigan vegetativ massa tarkibidagi yalpi NPK ni aniqlash (K.Ginzburg usulida).
 - ☞ O'simlik tarkibidagi oqsilni aniqlash (Barnshteyn usulida),
 - ☞ Bug'doy doni tarkibidagi umumiy azotni (Kyeldal usulida)
- O'simliklarni quruq og'irligi rivojlanish fazalari bo'yicha aniqlanganda, fazaning o'rtasida (70 %) har bir qaytariqdan 10 donadan o'simliklar olinib ularni quruq og'irligi aniqlanadi. Olingan natija o'nga bo'linadi va 1 ta o'simlikni shu fazadagi to'plagan quruq og'irligi gramm hisobida aniqlanadi.
 - O'simliklar tup qalinligini aniqlash uchun ajratilgan maydonchalardan hosilni yig'ishtirishdan oldin hosil strukturasini tahlil qilish uchun bog'lamlar (snoplar) olindi;
 - Laboratoriya sharoitida 100 ta o'simlik tahlili o'tkazildi, ularni balandligi o'lchanadi, mahsuldor poyalar hisoblab chiqildi, boshqoq uzunligi, boshqoqdagi boshqoqchalar va donlar soni bitta boshqoqdagi donlar og'irligi aniqlanadi;
 - - Donning namligi va ifloslanishi darajasi ,1000 ta donning massasi, don shishasimonligi va naturasi, kleykovina miqdori, aniqlandi. Dondagi oqsil miqdori Barnshteyn bo'yicha, umumiy oqsil miqdori Kyeldal usulida, kleykovina miqdori donning shaffofligi va naturasi GOST – 9353-84 bo'yicha aniqlandi.
 - Tajribaning iqtisodiy samaradorligi hisob–me'yoriy uslublari yordamida aniqlandi.

Tajribada agrokimyoviy tekshirish usullari.

Agrokimyoviy tekshirish ishlari asosan kuzgi bug'doy dalasidan ekishdan oldin, o'suv davrida va o'suv davrining oxirida tuproq namunalari tekshirish uchun olindi. Tuproq namunalari 0-20 sm va 20-40 40-60 sm qatlamlardan olindi va quyidagi tahlillar o'tkazildi va Samarqand qishloq xo'jalik instituti ilmiy agrokimiyo laboratoriyasida tahlil qilindi.

- Tuproq haydalma qatlamidagi gumus miqdori I.V. Tyurin usulida GOST - 26213. SINAQ variantida.
- Yalpi NRK Malsev va Grisenko usulida (1983) uslub bilan aniqlandi.
- Tuproqdagi nitrat azoti (N-NO_3) Grandval-Lyaju (1980) usulida.
- Tuproqdagi (N-NH_4)
- Harakatchan fosfor (P_2O_5) Machigin (1980) usulida
- Almashinuvchan kaliy (K_2O) esa Protasov (1980) usulida aniqlandi
- Tuproq muhiti (rN) N.Alyamovskiy usulida aniqlandi.
- Hosildorlik har bir paykalchadan alohida hisoblandi va B.A.Dospexov(1985) bo'yicha matematik ishlov berildi.
- Tuproq tarkibidagi umumiy azot miqdori (Kyeldal usulida).
- Tajriba natijalari esa B.A.Dospexov (1985) uslubida dispersion va korrelyativ tahlil qilindi.

II.2. Tuproq va ob-havo sharoitlari

Samarqand viloyatining Qo'shrobd tumani hududidagi tuproqlar asosan tipik bo'z tuproq turlaridan bo'lib, mexanik tarkibi bo'yicha soz, sizot suvlari joylashish chuqurligi 14–15 m ni tashkil qiladi. Tuproqlari tarkibida keyingi yillarda organik moddalarni kamayib ketganligi tufayli gumusni miqdori ham kamayib 0,76 % dan oshmaydi. Buning sababi almashlab ekishni yo'qligi va organik o'g'itlarni qo'llanmasligidan yoki kam ishlatilganligidandir. Tajriba o'tkazilgan maydonlar ko'p yillar davomida surunkasiga bug'doy ekilgan sug'oriladigan yerlardir. Ularning agrokimyoviy tarkibi bo'yicha olingan ma'lumotlar 3–jadvalda berilgan.

Bu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlilini ko'rsatishicha tuproqni yuqori ya'ni, ustki qatlamida (0 – 20 sm) gumusni miqdori va boshqa oziqa elementlarni ko'proq bo'lishi, pastki qatlamlarda esa ancha kamayishi kuzatiladi.

3-jadval

Tajriba maydonlari tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi

Qatlamlar sm	Gumus %	Yalpi shakllari, %			Harakatchan shakllari (mg/kg hisobida)		
		Azot	Fosfor	Kaliy	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
0 – 20	0,87	0,076	0,112	1,9	8,1	10,2	172
20 – 40	0,79	0,068	0,088	1,5	5,9	6,8	154
40 – 60	0,62	0,050	0,069	0,9	3,7	5,4	139
O'rtacha	0,76	0,065	0,090	1,43	5,9	7,5	155

Ilmiy tadqiqot olib borgan fermer xo'jalik tuproqdagi harakatchan shakldagi xar-xil oziqa moddalarning miqdori ham tuproq qatlamining astki qatlamlarga qarab chuqurlashishi bilan kamayib boradi. Tuproqdagi fosforning miqdori yuqori qatlamda (0–20 sm) 10,2 mg/kg bo'lsa, pastki qatlamga borgan sari bu ko'rsatkich yuqoridagiga nisttan 2 barobarga kamayib borishi kuzatildi.

Harakatchan fosfor miqdoriga ko'ra, tajriba o'tkazilgan maydon juda kam ta'minlangan tuproqlarga kiradi. Pastki qatlamda bu ko'rsatkich yanada yaqolliroq ko'zga tashlanadi.

Olib borilgan laboratoriya natijalariga ko'ra tuproq tarkibidagi almashinadigan kaliyning ko'rsatkichi bo'yicha tahlil qilinganda tajriba dalasi kam ta'minlangan tuproqlari guruhiga kirishi ma'lum bo'ldi. Tajriba maydoni tuproqlaridagi almashinadigan kaliy miqdori yuqorigi qatlamda 172 mg/kg bo'lsa, pastki qatlamda bu ko'rsatkich ancha farq qilib 139 kg/ga teng ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan xolda tuproq tahlilini ko'rsatishicha, tajriba maydoni tuprog'i oziqa moddalar bilan kam ta'minlangan tuproqlar darajasiga kiradi. Bu ma'lumotlardan shuni aytish joizki Samarqand viloyati Qo'shrobd tumani och-tusli bo'z tuproqlari uchun mos keladi. Bu tuproqlar tarkibida chirindi (gumus), azot va fosfor miqdori boshqa qo'shni tumanlarga nisbatan ancha oziqa moddalar miqdori pastligi bilan ajralib turadi.

Ob – havo sharoitlari

O'zbekiston Respublikasi dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgan bo'lib, u shimoldan keladigan sovuq arktik oqimdan himoyalangan. Shuning uchun ham iqlimi keskin kontinental iqlim hisoblanadi. Yozi o'ta issiq, quruq, qishi sovuq, qishda va bahorda yog'ingarchilikni bo'lishi O'zbekiston uchun xosdir.

Samarqand viloyati hududi Respublikamizning markaziy qismida joylashgan bo'lib iqlim sharoitining o'ziga xosligi bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Hududning tuproq va iqlim sharoiti dexqonchilikda eng muhim omillaridan hisoblanib agrotexnik tadbirlar to'g'ri qo'llanilganda hosildorlikni miqdori va sifatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Samarqand viloyatining iqlim sharoitini o'ziga xosli asosiy xususiyatlaridan okeandan uzoqligi, dengiz sathidan pastligi, murakkab relyefga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Relyefning bunday murakkab va notekisligi sababli har bir hudud o'ziga xos tabiiy sharoitga ega.

Qo'shrobd tumani iqlimi jihatidan Samarqand viloyatining boshqa tumanlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

Qo'shrobd tumani agrometeorologiyasining ko'p yillik ma'lumotlariga asoslangan xolda, tumanda samarali harorat yig'indisi 3500 – 3900 °S ga to'g'ri keladi. Yilning eng issiq davrlari iyul oyiga va sovuq – yanvar oylariga to'g'ri keladi. Umuman iqlim kuchli kontinental xususiyatga ega bo'lib, yozda havoning issiq

bo'lishi oqibatida harorat 40–45 °S gacha ko'tarilishi, qishda esa qishning sovuq kelishi ayrim kunlarda esa xaroratning keskin pasayib ketishi natijasida xarorat –24–29 °S gacha bo'lishi kuzatilgan.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida tajriba o'tkazilgan (2010 – 2011 yy) hududning iqlim sharoiti 4-jadvalda berilgan. Jadvallarni ma'lumotlardan aniqlanishicha, Qattiq bug'doyning asosiy vegetasiyasi davomida (sentyabr oyidan boshlab, kelasi yil iyun oylarigacha) havo harorati, yog'ingarchilik miqdori va havoning nisbiy namligi keskin o'zgarib turadi. Qattiq bug'doyni ekish va dastlabki rivojlanish bosqichlari davrida kuz oylarida (sentyabr–noyabr) tabiiy sharoit omillarining o'ziga xos o'zgarishlari kuzatiladi.

Ko'p yillik ma'lumotlarga asosan oktyabr oyidan boshlab, havo harorati sezilarli darajada pasaya boshlaydi. Tajriba o'tkazish yillarida o'rtacha harorat 16,4 °S ga to'g'ri keldi. Maksimal harorat esa 28,1 °S va minimal harorat 2,8 °S bo'ladi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 482,8 mm ga teng bo'ladi. Qo'shrobd tumani sharoitida bu muddat qattiq bug'doyni ekish, ularning rivojlanishi va yosh maysalarning qishlovga tayyorgarligi uchun eng maqbul muddat hisoblanadi.

Qo'shrobd tumani sharoitida kuzning oxirgi oyi, noyabrdan boshlab havo harorati keskin pasaya boshlaydi. Yog'ingarchilik miqdori nisbatan ko'proq bo'ladi. Havo xaroratining tez - tez o'zgarib turishi natijasida, avval ekilgan va unib chiqqan yosh maysalar tuplanish jarayonlarini o'taydi. O'simliklarni qishga chiniqishi tezlashadi. Ammo noyabr oyida ekilgan urug'larni unib chiqish muddati cho'ziladi va unuvchanlik darajasi ham pasayadi. Ilmiy tadqiqot o'tkazilgan yillarda o'rtacha harorat 14,4 °S, yog'ingarchilik miqdori 40,4 mm va havoning nisbiy namligi 65,2 – 66,2 % teng bo'ldi. Noyabr oyida maksimal harorat 8,7 °S va minimal harorat – 7,6 °S ga teng bo'ldi.

Qish oylari (dekabr, yanvar va fevral oylari) havo harorati eng past va yog'ingarchiliklar miqdori ko'p bo'ladigan davr hisoblanadi. Tajribalar o'tkazilgan yillarda havoning o'rtacha harorati dekabrda 3,2 °S, yanvarda 2,6 °S va fevralda 5,1 °S bo'ldi. Yog'ingarchilik miqdori o'rtacha dekabrda 55,9 mm, yanvarda 31,5 mm, fevralda esa 65 mm ga yetdi, dekabrda eng past harorat 2,8 °S, eng yuqori harorat 3,6 °S, yanvarda eng past harorat 2,2 °S, yuqori harorat 3,0 °S, fevralda eng past

harorat $4,3^{\circ}\text{S}$, eng yuqori harorat $6,0^{\circ}\text{S}$ ga teng. Havoning namligi dekabrda 82-84 %, yanvarda 83 - 87 % fevralda 79 - 81 % ni tashkil qildi.

Qo'shrobd tumani sharoitida tabiiy iqlim sharoiti qish fasli davomida qattiq bug'doy vegetasiyasining davom etishini ta'minlaydi. Bu muddatlarda qattiq bug'doylar uchun salbiy va ijobiy haroratlarni almashib turishi sodir bo'ladi. Natijada kech ekilgan urug'larni unib chiqishi va yosh maysalarni to'planishi davom etadi. Ammo, haroratni past bo'lishi va uni tez - tez takrorlanib turishi yosh maysalarni kuchli zararlanishi va sovuqdan nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Bahor oylarida qattiq bug'doy maysalarini o'sishi va rivojlanishlari uchun eng qulay muddat hisoblanadi.

Mart bahor faslining dastlabki oyi bo'lib qishlovdan chiqqan qattiq bug'doy maysalarning o'sish jarayonlari qayta tiklanadi. O'simliklarda fiziologik va biokimyoviy jarayonlar tezlashadi. Havo harorati sezilarli darajada ko'tariladi. Yog'ingarchilik ko'p bo'ladi, bu esa o'simliklarni o'sishini kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan yillarda havoning o'rtacha harorati bu oyda $10,3^{\circ}\text{S}$ eng past harorati $10,1^{\circ}\text{S}$, eng yuqori xarorati $10,6^{\circ}\text{S}$ ga teng, yogingarchilik miqdori 67,2-69,1 mm, xavoning nisbiy namligi 73 – 75 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Aprel oyi kuzda ekilgan qattiq bug'doy navining o'sishi va rivojlanishi uchun eng qulay muddat hisoblanadi. Havoning o'rtacha harorati $14,5^{\circ}\text{S}$, eng past harorati $12,1^{\circ}\text{S}$, eng yuqori xarorati $16,9^{\circ}\text{S}$, ga to'g'ri keladi, yog'ingarchilik miqdori 112,5-113,7 mm va havoni nisbiy namligi 76 - 80 % bo'ldi. Ob – havo sharoiti bug'doy navining naychalash va bashoqlash fazalari uchun qulay sharoit hisoblanadi.

May oyi bahorni oxirgi oyi bo'lib, qattiq bug'doy o'simliklarining gullarining paydo bo'lishi, changlanish va donlarning shakllanishi uchun qulay iqlim sharoitiga ega. Havoning o'rtacha harorati $20,9^{\circ}\text{S}$ eng past harorati $19,4^{\circ}\text{S}$, eng yuqori harorati $22,3^{\circ}\text{S}$ bo'lishi kuzatildi. Yog'ingarchilik miqdori 50,6-53,4 mm va havoning nisbiy namligi 63-71 % ni tashkil qildi.

Yoz fasli yog'ingarchiliklarning juda kam (iyun) yoki, umuman bo'lmasliklari bilan (iyul, avgust) xarakterlanadi. Bu davrda havo haroratining yuqori va nisbiy namligining eng past bo'lishi kuzatiladi. Yozning bu davri ya'ni, iyun oyining iqlim sharoiti qattiq bug'doy donlarining to'la shakllanishi va pishib yetilishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Tadqiqot o'tkazilgan yillarda iyun oyining o'rtacha xarorati $24,7$

$^{\circ}\text{S}$ ga teng, eng past harorati $23,2^{\circ}\text{S}$, eng yuqori harorati esa $26,2^{\circ}\text{S}$ ga teng bo'ldi. Yog'ingarchilik miqdori 30,8-32,5 mm va havoning nisbiy namligi 48 -52 % ga teng bo'ldi. Bu oyning oxirida qattiq bug'doy to'la pishadi va yig'ishtirish ishlari boshlanadi.

Qo'shrobod tumani tuproq- iqlim sharoiti qattiq bug'doy yetishtirish uchun qulay. Shu sababli Davlat reyestiriga kirgan bug'doy navlarini shu tabiiy muhitga moslashtirish, agrotexnologik uslublarini qo'llash orqali yuqori va sifatli don hosilini yetishtirish mumkin.

Tajribalar o'tkazilgan 2010-2011 yillarning iqlim ko'rsatkichlari
(Qo'shrobd gidrometeostansiyasi ma'lumotlari)

4-jadval

Havo harorati, 0S													
Yillar \ Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	O'rtacha yillik harorat ⁰ S
2009	3,0	6,0	10,6	12,1	19,4	23,2	26,3	24,2	19,9	13,2	7,6	3,6	14,1
2010	2,2	4,3	10,1	16,9	22,3	26,2	27,9	25,0	19,1	12,2	8,7	2,8	14,8
O'rtacha ikki yillik	2,6	5,1	10,3	14,5	20,9	24,7	27,1	24,6	19,5	12,7	8,1	3,2	14,4
Atmosfera yog'inlari, mm													
Yillar \ Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	O'rtacha yillik yog'in miqdori, mm
2009	30,9	63,7	67,2	112,5	50,6	30,8	0,0	1,2	0,3	43,2	27,2	55,1	482,7
2010	32,2	66,3	69,1	113,7	53,4	32,5	0,2	0,9	2,1	45,1	30,2	56,7	502,4
O'rtacha ikki yillik	31,5	65	68,1	113,	52	31,7	0,1	1,05	1,2	44,1	28,7	55,9	492.5
Havoning nisbiy namligi, %													
Yillar \ Oylar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	O'rtacha yillik havo namligi, %
2009	83	79	73	76	63	48	41	47	54	64	72	82	65,2
2010	87	81	75	80	71	52	43	47	46	66	74	84	66,2
O'rtacha ikki yillik	85	80	74	78	67	50	42	47	50	60	73	83	65,7

II.3. O'rganilgan bug'doy navning qisqacha tavsifi

Aleksandrovka navi qattiq bug'doy - duvarak. BO'ITI O'rta Osiyo bo'limi (O'zbekiston O'simlikshunoslik ITI) va Surxondaryo viloyati, Uzun DNU hamkorligida yaratilgan. Tur-xili– Melinopus.

Mualliflari: A.K.Uchevatkin, R.A.Udachin.

Nav 1991 yildan Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 1993 yildan respublikamizning sug'oriladigan yerlarida rayonlashtirilgan.

Boshog'i urchuqsimon, oq, tukli, uzunligi o'rtachadan yirikgacha, zich. Boshog qipig'i lansetsimon, o'rtacha tomirlangan. Tishchasi qiltiqsimon. Yelkasi keng ko'tarilgan. Choki aniq. Qiltig'i uzun, tarqoq, qora. Doni yirik, cho'zinchoq-oval, sayoz ariqchali. Donining asosi tukli. 1000 ta donining vazni 42,0 g.

O'rta ertapishar, vegetasiya davri 160-200 kun. Yotib qolish va to'kilishga bardoshli, 5,0 ball. O'zbekiston sharoitida yaxshi qishlaydi, qishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha don hosildorligi Uzun nav sinash shaxobchasida sinov yillarida gektaridan 51,3 sentnerni tashkil etdi, lalmikor sharoitda 12,9-22,9 sentnergacha.

Sinov yillarida un shudring Bilan kam zararlanishi kuzatildi, 14,0% gacha.

Navning texnologik sifati yaxshi: oqsil miqdori (protein) 14,7-18,2% gacha, kleykovinasi 32,2-36,4% gacha. Navning makaronlik sifati yaxshi, umumiy bahosi yaxshi 3,9-4,4 ball.

II.4.Tajribada qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlar

Qattiq bug'doy yetishtirishda eng muhim masalalardan biri, bu uning agrotexnik tadbirlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va to'g'ri mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirib, o'tmishdosh ekinlarni to'g'ri tanlab qattiq bug'doy xosildorligini oshirish muxum va dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. Qattiq bug'doy uchun eng yaxshi o'tmishdosh—ko'p yillik o'tlar, beda, donli dukkakli ekinlar va chuqur va o'z vaqtida qilingan shudgor hisoblanadi.

Bizlarning tajribalarimizda qattiq bug'doyni xshjalik sharoiti xisobga olingan xolda o'tmishdosh ekin sifatida no'xat ekin ekiladi.

Asosiy yerga ishlov berish o'tmishdosh ekin qoldiqlaridan tozalashdan boshlanadi. O'z vaqtida sifatli qilib o'tkazilgan yerga ishlov berish, bu yuqori hosil yetishtirish garovidir. Yerlar tozalanib, mahalliy va fosforli - kaliyli o'g'itlardan tajriba tuzilmasi bo'yicha solinib, 28-32 sm chuqurlikda dalaning nishabligiga ko'ndalang qaratib sifatli shudgorlash o'tkazildi. Shu hudud uchun qattiq bug'doy ekinini ekish muddatiga rioya qilingan holda belgilangan muddatlarda ekish o'tkaziladi.

Qattiq bug'doyning ekish usullari turlicha bo'lib, ko'pchilik hollarda qator oralig'i 15 sm, tor qatorlida 6,5-8,5 sm qilib ekiladi. Qattiq bug'doyning ekish me'yori, muddati va chuqurligini aniqlashda shu tumanning tuproq-iqlim sharoiti, agrotexnika darajasi, ekish materialining sifati, shuningdek navning biologik xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Ekish me'yorlarini belgilashda, uni har bir gektar uchun kg hisobida emas, balki unib chiquvchi donlar soni hisobida 1 ga uchun ekish me'yorlarini belgilash juda muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda biz tajriba dalasiga qattiq bug'doyning "Aleksandrovka" navi urug'larini 5 mln dona hisobida S3-3,6 seyalkasida 4-5 sm chuqurlikda ekdik.

O'z vaqtida yuqori sifatli qilib ekilgan, yaxshi agrotexnikaga rioya qilinsa, qattiq bug'doy kuzda yaxshi rivojlanib tuplanadi va qish oylarida bo'ladigan sovuq kunlarga chidamli bo'ladi. O'simlikni parvarish qilishga, uni oziqlantirish, bahorda begona o'tlarga, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish chora-tadbirlari kiradi.

Qattiq bug'doyni oziqlantirish kuzda va bahor oylarida o'tkaziladi. Kuzgi oziqlantirish azotli va fosforli o'g'itlar bilan o'tkaziladi. Bunday oziqlantirish o'simlikning qishga (sovuqqa) chidamliligini keskin oshiradi.

**Tajriba dalasida o'tkazilgan asosiy agrotexnologik ishlar
(2009 – 2010 yy.)**

5-jadval

№	Bajarilgan ishlar nomi	Ish qurollari	O'tkazilgan vaqti va soni	
			1	2
1	Nam to'plovchi sug'orish uchun jo'yak olish va 700m ³ /ga hisobida sug'orish	ChKU- 4, qo'lda	15.08.10	
2	Tavsiya etilgan o'g'itlarni P_2O_5 – 70 kg/ga va K_2O – 50 kg/ga qo'llash	Qo'lda	18.08.10	
3	Shudgorlash g	PYa-3-35	25.09.10	
4	Yerni ekishga tayyorlash: chizellash, baronalash va molalash	ChKU-4	12.10.10	
5	Qattiq bug'doyning "Aleksandrova" navini ekish, 20-kg/ga P_2O_5 bilan va K_2O – 10 kg/ga o'g'itlar bilan birgalikda	S3-3,6	16.10.10	
6	Qattiq bug'doyni o'suv davrida atmosfera yog'inlarini hisobga olgan holda gektariga 700-800 m ³ hisobida sug'orish	Qo'lda	09.11.10	
7	Qattiq bug'doyni tuplanish, naychalash va boshoqlash davrlarida 43, 37, 20 % azot bilan oziqlantirish	Qo'lda	20.02.11.	
8	Tajriba maydonidagi qattiq bug'doyni begona o'tlariga qarshi "Granstar – 75% DF" gerbisidini sepish	OVX – 28	15.03.11	
9	Tajriba dalasidagi qattiq bug'doy kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish	OVX – 28	20.04.11	
10	Tajriba dalasidagi kuzgi bug'doy hosilini paykalchalar va variant-lar bo'icha alohida – alohida yig'ishtirib olish	"Keys" kombaynida	10.06.11	

Xamda o'simlikning kasalliklarga chidamliligini oshirib, poyalarni mustahkamlaydi va ularni yotib qolishdan saqlaydi. Kuzgi oziqlantirishni ekish bilan bir vaqtda gektariga 15-20 kg/ga P_2O_5 bilan o'tkazish yaxshi samara beradi.

Ertahorda kuzgi bug'doyni azotli oziqlantirish juda muhim tadbir hisoblanadi. Buning uchun ob-havo sharoitiga, o'simlikning qishdan qanday holatda chiqishiga va kech kuzda oziqlantirish me'yoriga qarab, har bir gektar hisobiga mineral o'g'itlar, azot–140, 160, 180 kg/ga, fosfor–100 kg/ga, kaliy–60 kg/ga hisobida oziqlantiriladi. Bunday oziqlantirish o'simlikning yaxshi o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi hamda yuqori va sifatli hosil yetishtirish imkonini beradi. Ikkinchi va uchinchi oziqlantirishlar naychalash va boshqoq tortish davrida mos ravishda tajriba sxemasi asosida o'tkaziladi.

Olib borilgan tajriba dalasida erta va kech bahorgi agrotexnik tadbirlardan biri, bu g'allazorlarni begona o'tlardan tozalash va vujudga kelish xavfi bo'lgan kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish chora–tadbirlarini ishlab chiqishdir.

Biz olib borgan tajriba dalaqidagi begona o'tlarga qarshi kurashishda kimyoviy preparatlar – granstar gerbisidlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun bug'doyzorlarni qaysi begona o'tlar bilan qanday darajada ifloslanganlik darajasini, begona o'tlarning turlarini bilgan holda qanday gerbisidlardan foydalanish kerakligini aniqlab olish kerak va shundan keyingina ularga qarshi kurashish yaxshi samara beradi.

Ilmiy tajriba dalasida yetishtirilgan bug'doy uchun qo'llangan barcha agrotexnikaviy tadbirlarning kalendar vaqti quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

III. TADQIQOT NATIJALARI

III.1. Mineral o'g'itining tuproqdagi ha rakatchan oziq moddalar miqdoriga ta'siri

Olib borgan tajribamiz davomida tuproq tarkibidagi nitratli va ammoniyli azot miqdorini dinamikasi o'rganildi. Qattiq bug'doy delyankalar tuprog'i tarkibida xar oyning 10 chi sanasida nitratli azot miqdori 0-20, 20-40 sm qatlamlarda mineral o'g'it $N_{180} R_{100} K_{60}$ tuproq tarkibidagi N- NO_3 dinamikasi sezilarli ta'sir qilganligi kuzatildi. Hamma o'g'itlangan variantlarda yil davomida nazoratga nisbatan nitratlar miqdori ko'p. O'g'itlangan variantlarda kontrolga nisbatan azot miqdori 1,5-2 marotaba ko'pligi aniqlandi. Oktyabr, mart, aprel, maylarda tuproq tarkibida nitratlar ko'pligi o'g'itlash va tuproqda biologik jarayon faolligi bilan bog'liq. Variantlar orasida berilgan o'g'it miqdori va tuproq turiga bog'liq. Shuni aytish joizki aprel va may oylarida hamma variantlarda shu jumladan nazoratda ham nitratlar miqdori oshadi ammo mineral o'g'itlar berilganda nitratlarni tuproq tarkibidagi miqdori ko'proq mart va may oylarida variantlarga nisbatan azot bilan oziqlanishi uchun eng qulay optimal sharoit yaratiladi. 6-jadval

Tuproq tarkibida ammoniyli azotni N- NN_4^+ miqdori o'zgarishi o'g'itlar va mikrobiologik jarayonlarga bog'liq. Ammo nazorat variantiga nisbattan mineral o'g'itlar qo'llaganda vegetasiyaning ayrim davrlarida o'simlikning azot bilan ta'minlanishi yaxshi bo'ldi. Ko'plab olimlar ma'lumotlariga qaraganda kuzda berilgan mineral moddalar tarkibidagi azotning faol amonifikasiyasi aprel va may oylarida o'tadi, shuning uchun bu variantlarda may oylarida hamma tuproq qatlamlarida ammoniyli azot nafaqat nazoratga nisbatan, baland mineral o'g'itlar qo'llanilgan variatlarga nisbatan ham ko'p. Mineral o'g'it $N_{180} R_{120} K_{60}$ qo'llanishi vegetasiyani naycha chiqarish boshq tortish va pishish fazalarida o'simlikni azot bilan optimal ta'minlashi imkoniyatini beradi. Masalan mart oyida kontrolning 0-20 sm qatlamida 25-17 mg/kg N- NN_4^+ bo'lsa mineral o'g'itlar $N_{180} R_{120} K_{60}$ qo'llanilganda 33-20 mg/kg. 0-20 va 20-40 sm qatlamlarda variantlar o'rtasida farq sezilarli darajada. Aprel va may oylarida nazoratga nisbatan farq oshib bormoqda. 7-jadval

O'g'itlarni tuproq tarkibida N- NH_4^+ miqdoriga ta'siri,mg/kg (2010-2011 yy)

6-jadval

№	Variantlar	Tuproq qatlamlari, sm	Oylarning ikkinchi o'n kunligida							
			Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	April	May
1	Nazorat	0-20	19	17	13	14	14	25	21	22
		20-40	9	11	9	10	8	17	18	14
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	0-20	27	25	20	21	20	32	32	28
		20-40	12	15	14	18	16	20	14	18
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	0-20	27	28	21	22	23	34	28	27
		20-40	15	16	17	16	17	22	20	14
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	0-20	22	22	20	20	20	33	40	38
		20-40	13	15	12	11	11	20	32	33

O'g'itlarni tuproq tarkibida N- NO₃⁻ miqdoriga ta'siri,mg/kg (2010-2011 yy)

7-jadval

№	Variantlar	Tuproq qatlamlari, sm	Oylarning ikkinchi o'n kunligida							
			Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	mart	Aprel	May
1	Nazorat	0-20	20	10	10	8	14	12	13	10
		20-40	8	6	6	8	10	20	10	8
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	0-20	31	21	17	11	17	26	34	29
		20-40	11	11	15	19	22	20	28	23
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	0-20	32	23	17	13	18	28	36	30
		20-40	13	13	16	20	23	23	30	23
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	0-20	35	26	20	17	22	30	37	42
		20-40	15	15	17	22	25	25	33	26

III.2. Urug'larning dala unuvchanligi

Urug'larning dala unuvchanligining pasayishini turli omillarga bog'liq bo'lishi bir qancha olimlar tomonidan ko'rsatilgan. Bu sabablar o'tmishdosh ekinlarni noto'g'ri tanlash, urug'larni ekish chuqurligini noto'g'ri belgilash, urug'lik sifatini pastligi, tuproqdagi namlik va haroratni yetishmasligi va har xil kasalliklardan iborat bo'lishi mumkin (Svinaryev, 1965; Lukyanenko, 1957; Yelagin, 1960; Kumakov, 1985; Nosatovskiy, 1965; Remeslo; Saykov 1981; Mamirov, 1990).

Kuzgi bug'doy navidan yuqori hosil yetishtirishda eng optimal qalinlikdagi, sog'lom maysalarni o'stirib olish asosiy agrotexnik tadbirlardan biri hisoblanadi. Urug'larni dala unuvchanligi, laboratoriya sharoitidagi unuvchanlikdan ancha kam bo'lishi ma'lum. Urug'larning dala unuvchanligi urug'larning sifatiga, agrotexnikaga, tuproq – iqlim sharoitlariga, urug'larning, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishiga, hamda boshqa har xil omillarga bog'liq bo'ladi.

Tajribada donning unuvchanligiga don sifati, namlik, yorug'lik hamda ekish me'yorlari ta'sir qiladi

Qattiq bug'doy dala unuvchanligi va qishlab chiqqan o'simliklar soni, dona (2010-2011 yy)

8-jadval

№	Variantlar	Dala unuvchanligi, soni, dona	Dala unuvchanligi soni, %	Bir m² da qishlab chiqqan o'simlik soni, dona	Qishlab chiqishi, %
1	Nazorat	456	89,0	416	88,76
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	457	89,2	437	94,3
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	455	88,7	435	94,3
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	460	90,0	440	94,4

III.3. Azotli o'g'itining bug'doy yer ustki qismi va ildiz tizimining shakllanish xususiyatlariga ta'siri

Bug'doy o'simligining vegetasiyasi davrida, uning o'sishi va rivojlanishida zarur bo'ladigan oziq moddalar, (mineral elementlar), suv bilan ta'minlanishida ildiz tizimining ahamiyati kattadir. Ildiz tizimining o'sishi va rivojlanishida esa o'simlikning yer ustki qismining (ildizni organik moddalar bilan ta'minlashda) ta'siri sezilarlidir. Bu jarayonlarning hammasi bug'doy hosilining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi (Stankov, 1969; Genkel, 1969).

Kuzda ekilgan bug'doy navlarining yer ustki qismi va ildiz tizimining o'sishi, rivojlanishi, ularni massasi va hajmini oshib borishi kabi ko'rsatgichlari o'simlik turi, navning biologik xususiyatlari, ekish muddatlari, me'yorlari, sug'orish va oziqlanish rejimlariga bog'liq ekanligi har xil tuproq – iqlim sharoitlarida o'rganilgan (Dano'lchenko, 1978; Xalilov, 1994; Ravshanov, 2000, 2001).

O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida Davlat reyestriga kiritilgan qattiq bug'doy navining yer ustki qismi va ildiz tizimini shakllanish xususiyatlari juda kam o'rganilgan. Ayniqsa, Qo'shrobd tumani sharoitida qattiq bug'doyning oziqlantirilganda o'simlikning yer ustki qismiga sezilarli ta'siri kuzatildi. Ildiz tizimining rivojlanish jarayonlariga azotli o'g'itni ta'siri tajribada yaqqol ko'zga tashlandi. Qattiq bug'doy navlari rivojlanishining naychalash fazasida, $N_{180} R_{100} K_{60}$ mineral o'g'it berilganda o'simliklarda bu ko'rsatgichlar yuqori bo'lib, nazorat variantida ekilgan o'simliklarda esa 3 – 4 % gacha kam bo'lganligi aniqlandi.

Ilmiy ishimizning 9-jadvaida o'simliklarning azotli oziqlantirish, fosfor va kaliyli o'g'itlar qo'llash o'simlikning ildizi rivojlanishi, oziqlanishi maydonida mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilgan variantlarimizda ildiz massa miqdori va shunga bog'liq ravishda vegetativ massa to'plashga ta'sirini o'rganish keltirilgan.

Azotli o'g'itining boshloqlash fazasida qattiq bug'doy yer ustki massasi va ildiz tizimining rivojlanishiga ta'siri (2010- 2011 yy)

9-jadval

№	Variantlar	Bitta o'simlik quruq massasi,g		Ildiz va yer ustki qis-mining nisbati
		Ildiz	Yer ustki qismi	
1	Nazorat	1,5	4,2	1:2,6
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	2,3	5,2	1:2,8
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	2,2	7,6	1:3,4
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	2,3	8,4	1:3,6

III.4. Qattiq bug'doy tarkibidagi azot va o'g'it tarkibidan o'zlashtirishi

Laboratoriyada qilingan o'simlik analizi shuni ko'rsatdiki azotli o'g'iti bilan oziqlantirishga o'simlikning azot o'zlashtirishi va o'simlik tarkibida azotli moddalar to'planishinishiga yordam beradi.

Qattiq bug'doyni azotli o'g'iti bilan o'g'itlash natijasida yer ustki qisimini o'zgarishi oziqa rejimining optimallasishi ta'sirida o'simlik tarkibida azot miqdorini o'zgarishiga olib keladi. Masalan, vegetasiya oxirida nazorat variantining samoni tarkibida 2010-2011 yilda N-0,30% bo'lgan bo'lsa, N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀ bilan oziqlantirilgan variantda 0,42% ni tashkil etdi. N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀ oziqlantirganda bu ko'rsatkich 0,44% ni tashkil qildi.

Huddi shunday ko'rsatkich N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀ o'g'iti bilan oziqlantirganda ham kuzatildi. O'simlik doni tarkibida ham azot miqdori mineral o'g'iti bilan oziqlantirishga o'simlikning azot o'zlashtirishi va don tarkibida azotli moddalar to'planishinishiga yordam beradi.

Azotli o'g'iti bilan o'g'itlash natijasida tup sonini o'zgarishi oziqa rejimining optimallasishi ta'sirida o'simlik tarkibida azot miqdorini o'zgarishiga olib keladi. Masalan, vegetasiya oxirida nazorat variantining samoni tarkibida 2010-2011 yilda N-2,6 bo'lgan bo'lsa, N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀ bilan oziqlantirilgan variantda 2,93 % ni tashkil etdi. N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀ o'g'iti bilan oziqlantirganda bu ko'rsatkich 3,2 % ni tashkil qildi.

Huddi shunday ko'rsatkich N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀ o'g'iti bilan oziqlantirganda N-3,36% kuzatildi.

**Azotli o'g'itini qattiq bug'doyni somon va don tarkibida azot
miqdoriga ta'siri (2010-2011 yy)**

10-jadval

№	Variantlar	Somonda N,% takrorlarda				O'rtacha	Donda N,% takrorlarda				O'rtacha
		1	2	3	4		1	2	3	4	
1	Nazorat	0,27	0,29	0,31	0,33	0,30	2,6	2,58	2,63	2,60	2,6
2	N ₁₄₀ P ₁₀₀ K ₆₀	0,43	0,40	0,42	0,43	0,42	2,98	2,85	2,95	2,98	2,93
3	N ₁₆₀ P ₁₀₀ K ₆₀	0,43	0,45	0,43	0,46	0,44	3,11	3,16	3,21	3,12	3,2
4	N ₁₈₀ P ₁₀₀ K ₆₀	0,47	0,45	0,46	0,46	0,46	3,31	3,42	3,45	3,28	3,36

3.5. Azotli o'g'itni qattiq bug'doy hosili shakillanish xususiyatlariga ta'siri

Azotli o'g'itlarning o'simlik o'sishi va rivojlanishiga ta'siri natijasida hosildorlik o'zgargan. O'rtacha hosildorlik nazorat variantida 17,3 s/ga ni tashkil etdi. $N_{140} P_{100} K_{60}$ bilan oziqlantirilgan variantda 41,5 s/ga ni tashkil etdi. $N_{160} P_{100} K_{60}$ bilan oziqlantirganda bu ko'rsatkich 43,5 s/ga ni tashkil qildi. Huddi shunday ko'rsatkich $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirganda 44,7 s/ga bo'lganligi kuzatildi. Tajribamizda nazoratga nisbatan o'g'itlangan variantlarda qo'shimcha hosil miqdori oshganligi kuzatildi. O'g'itlarning ta'siri qonuniyati saqlangan (11-jadval). Xulosa qilib aytish mumkinki azotli o'g'it bilan oziqlantirilganda o'simlik oziqa moddalar bilan ta'minlash ta'siri natijasida hosildorlik oshirilishi ta'minlandi. Eng qulay sharoit $N_{180} P_{100} K_{60}$ varianti oziqlantirganda kuzatildi.

O'simliklarning tuplanish, naychalash, boshqolash fazalarida oziqa elementlarining yetishmasligi boshqodagi boshqochalar va don sonini kamayishiga olib keladi bu ko'rsatkichlarga azotli o'g'itini oziqlantirilganda ta'sir kuzatildi.

Olib borilgan ilmiy tajribalarimizda boshog'ining uzunligi, boshqochalar va boshqodagi donlar soni, bitta boshqodagi 1000 ta donlar og'irligi azotli o'g'iti bilan oziqlantirilganda mos ravishda nazoratga nisbatan ancha farq qildi. (-----jadval

Azot o'g'itini qattiq bug'doy hosildorligiga ta'siri. (2010-2011 yy)

11-jadval

№	Variantlar	Hosildorlik, s/ga				
		Takrorlar				
		1	2	3	4	O'rtacha
1	Nazorat	16,7	18,5	16,3	17,7	17,3
2	$N_{140} P_{100} K_{60}$	40,3	42,4	40,2	43,1	41,5
3	$N_{160} P_{100} K_{60}$	42,6	44,3	43,4	43,7	43,5
4	$N_{180} P_{100} K_{60}$	45,4	47,5	40,3	45,6	44,7

Azot o'g'itini qattiq bug'doy sifat ko'rsatkichiga ta'siri. (2010-2011 yy)

№	Variantlar	Boshqoq uzunligi, sm	Boshqoqdagi don soni, dona	1000 ta don urug' vazni, g	Hosildorlik s/ga
1	Nazorat	7,3	18	27	17,3
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	9,1	41	35	41,5
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	9,4	43	38	43,5
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	9,8	45	41	44,7

Donlar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichi N₁₈₀ R₁₀₀ K₆₀ variiantida oziqlantirilgan variantda 45 ta don kuzatildi. Eng kam don nazorat variantida 18 ta don kuzatildi.

Bug'doy hosili strukturasidagi yana muhim ko'rsatgichlardan biri bitta boshqoqdagi don massasidir. I.X.Hamdammov, K.R.Ravshanov

Ekish muddatlari va me'yorlarining bug'doy doni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini ko'pgina tadqiqotchilar mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda o'rganishgan. Ularning ta'kidlashicha optimal muddatlarda ekilganda bug'doydan yuqori hosil olinib, donning sifat ko'rsatkichlari: natura og'irligi, mingta don massasi, shishasimonligi, oqsil miqdori, kleykovina miqdori yuqori bo'lgan. (Sobka va boshqalar 1978; Xafizov, 1988; Remeslo, Sayko, 1981; Xalilov, 1994; Ravshanov, 1999).

Donning sifat ko'rsatkichlaridan biri 1000 ta donning massasi, donning kattaligi va to'laligini ko'rsatadi. Bunday ko'rsatkich o'simliklarni o'sish muhitiga, navga donning boshqoqdagi joylashish o'rniga bog'liq holda o'zgarib boradi. 1000 ta donning massasi donni faqat sifat ko'rsatkichi bo'lib qolmasdan, bug'doyni qanday sharoitda o'sib rivojlanganligini ifodalaydi. Don qurg'oqchil sharoitda yuqori harorat ta'sirida hosil bo'lganda, mingta donning massasi kamayadi, ammo oqsil miqdori oshadi (Almanov, 1978; Netis, 1989).

Sozinov A.A., Jemela G.P. (1983) tadqiqotlarini ko'rsatishicha 1000 ta don massasi va natura og'irligi optimal muddatlarda ekilganda eng yuqori bo'lgan. Kech va erta muddatlarda ekilganda 1000 ta don massasi va natura og'irligi pasaygan.

Hamma agrotexnik tadbirlar hosildorlikni va hosil sifatini oshishiga olib keladi. Noqulay tashqi muhit va ichki omillar, yotib qolish, kasalliklar va zararkunandalar bilan zararlanish mingta don massasini kamaytiradi.

O'simlik yer ustki qismi o'zgarishi va oziqlanishi rejimining optimallasuvi hosil strukturasi va sifatiga ta'sir qiladi. Eng ko'p don og'irligi . $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirgan variantda kuzatildi. Masalan nazorat variantda 1000 ta don og'irligi 27 gr ni tashkil qilgan bo'lsa shu ko'rsatkich miqdori $N_{140} P_{100} K_{60}$ oziqlantirilgan variantda 35 gr ni tashkil etdi. $N_{160} P_{100} K_{60}$ oziqlantirganda bu ko'rsatkich 38 gr ni tashkil qildi. Huddi shunday ko'rsatkich $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirganda 41 gr ni tashkil qildi Eng ko'p don naturasi $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirgan variantda kuzatildi. Masalan nazorat variantda 721 g/l don naturasini tashkil qilgan bo'lsa shu ko'rsatkich miqdori $N_{140} R_{100} K_{60}$ oziqlantirilgan variantda 799 g/l don naturasini tashkil etdi. $N_{160} R_{100} K_{60}$ o'g'iti bilan oziqlantirganda bu ko'rsatkich 818 g/l don naturasini tashkil qildi. Huddi shunday ko'rsatkich $N_{180} P_{100} K_{60}$ o'g'iti bilan oziqlantirganda ham 822 g/l don natura kuzatildi. Tajribadan ko'rinib turibdiki, nazorat va $N_{140} P_{100} K_{60}$ oziqlantirilgan variantlarida ko'rsatkichlar tajribada past bo'lganligi aniqlandi.

Tajribamiz kuzatishlarida don tarkibida eng ko'p klekovina miqdori $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirgan variantda kuzatildi. Masalan nazorat variantda 22,5 % klekovina miqdorini tashkil qilgan bo'lsa shu ko'rsatkich miqdori $N_{140} P_{160} K_{60}$ variantda 28,2 % klekovina miqdorini tashkil etdi. $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirganda bu ko'rsatkich 31,8% klekovina miqdorini tashkil qildi. Tajribadan ko'rinib turibdiki, nazorat va $N_{140} P_{100} K_{60}$ va suv bilan oziqlantirilgan variantlarida ko'rsatkichlar tajribada past bo'lganligi aniqlandi.

Tajribamizda olib borilgan tekshirishlar natijasida don tarkibida eng ko'p oqsil miqdori $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirgan variantda kuzatildi. Masalan nazorat variantda 15,0 % oqsil miqdorini tashkil qilgan bo'lsa shu ko'rsatkich miqdori $N_{140} P_{100} K_{60}$ oziqlantirilgan variantda 16,6 % oqsil miqdorini tashkil etdi. $N_{140} P_{100} K_{60}$ oziqlantirganda bu ko'rsatkich 17,2% oqsil miqdorini tashkil qildi. Huddi shunday ko'rsatkich $N_{180} P_{100} K_{60}$ oziqlantirganda 17,8 % oqsil miqdori bo'lganligi kuzatildi. Tajribadan ko'rinib turibdiki, nazorat va $N_{140} P_{100} K_{60}$ oziqlantirilgan variantlarida ko'rsatkichlar tajribada past bo'lganligi aniqlandi.

Azotli o'g'itini qattiq bug'doy sifat ko'rsatkichiga ta'siri. (2010-2011 yy)

13-jadval

№	Variantlar	Don naturasi g/l	Oqsil miqdori, %	Kleykovina miqdori, %	Don shisha- simonligi, %
1	Nazorat	721	15,0	22,5	70,9
2	N₁₄₀ P₁₀₀ K₆₀	799	16,6	28,2	86,4
3	N₁₆₀ P₁₀₀ K₆₀	818	17,2	31,8	89,1
4	N₁₈₀ P₁₀₀ K₆₀	822	17,8	34,3	92,2

IV. TAJRIBADA QO'LLANILGAN AZOTLI O'G'ITLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Qo'shrobd tumani sharoitida sug'oriladigan och-tusli bo'z tuproqlar sharoitida qattiq bug'doyni azotli oziqlantish jarayonida qattiq bug'doy o'stirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki Qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirishda qo'llaniladigan agrotexnik usullar va texnologik jarayonlarning afzalliklari iqtisodiy samaradorlik darajasining yuqori yoki pastligi bilan aniqlanadi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar bilan belgilanadi.

Samarqand viloyati Qo'shrobd tumani sharoitida sug'oriladigan yerlarida ekiladigan qattiq bug'doy o'stirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda tajriba o'tkazilgan yillarda bug'doyni xarid narxlari hisobga olingan holda o'tkazildi. Chunki mamlakatimizni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qishloq xo'jalik ekinlarini xarid narxi o'zgarib turadi. Shuning uchun ishlab chiqarish tajribalarida qattiq bug'doy o'stirishning iqtisodiy samaradorligi va dala tajribalari 2010-2011 yillardagi donning xarid narxlari bo'yicha aniqlandi.

Sug'oriladigan maydonlarda qattiq bug'doyni intensiv navini o'stirishda bir gektar maydonga sarflangan xarajatlarni aniqlashda, urug'likni bahosi mineral o'g'itlar, zaharli kimyoviy moddalar (gerbisidlar, fungisidlar va boshqalar), tuproqqa ishlov berish, hosilni yig'ishtirish, donni tashish va tozalash, mehnat haqi, qishloq xo'jaligi mashinalarini joriy ta'mirlash va ammortizasiya, yog' – moylash va sug'urta xarajatlari hisoblanadi.

Qo'shrobd tumani sharoitida sug'oriladigan maydonlarda qattiq bug'doyni intensiv navlarini o'stirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yetishtirilgan maxsulotning yalpi bahosi, 1 gektar ekinzorga sarflangan xarajatlar, yetishtirilgan 1 s. donning tannarxi, 1 gektardan olingan shartli sof foyda, rentabellik darajasi o'g'itlash me'yorlariga bog'liq holda o'zgarib boradi.

Kuzgi bug'doyni 2010-2011 yillar

14-jadval

№	Xarajatlar va foyda nomlari	1-variant	2-variant	3-variant	4-variant
1	Urug' (sum/ga)	190000	190000	190000	190000
2	Yerni shudgorga tayyorlash (sum/ga)	150000	150000	150000	150000
3	Sug'orish (sum/ga)	70000	70000	70000	70000
4	O'g'itlash (sum/ga)	0	299200	319850	340150
5	Kasallik va zararkunandalar (sum/ga)	70000	70000	70000	70000
6	Hosilni yig'ishtirish va tashish (sum/ga)	180000	180000	180000	180000
7	Jami xarajatlar (sum/ga)	660000	959200	979850	100150
8	Hosil (kg/ga)	1730	4150	4350	4470
9	Yalpi daromad (sum/ga)	1038000	2490000	2610000	2682000
10	Sof foyda (sum/ga)	378000	1530800	1630150	1681550
11	Rentabellik (%)	57,28	159,6	166,4	168,15

Samarqand viloyatining Qo'shrobd tumani sharoitida och-tusli bo'z tuproq maydonlarida azotli o'g'itlash qattiq bug'doyni intensiv "Aleksandrovka" navi sug'oriladigan yerlarda o'stirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'yicha qilingan tahlillar shuni ko'rsatadiki (14-jadval) 1 gektar maydondan olingan yalpi mahsulotni sotishdan kelgan daromad ko'rsatib o'tilgan. Dala tajribalarining 2010-2011 yillar qattiq bug'doy eng kam sof daromad nazorat variantda olingan bo'lib, bu jami harajatlar ko'rsatkichi 660000 so'm/ga ni, yalpi daromat 1038000 so'm va rentabellik darajasi 57,28 % ni tashkil etdi. Bu esa, tuproqlar unumdorligining keskin pasayib ketganligini ko'rsatadi va ushbu sharoitda kerakli agrotexnik tadbirlarni qo'llab, tuproqqa turli xil mineral o'g'itlar qo'llash tuproq unumdorligini oshirishni talab etadi.

Ko'rsatib o'tilgan sharoitda gektariga $N_{180} P_{100} K_{60}$ variantida qattiq bug'doy hosildorligi yuqori bo'lib, nazorat maydonlarga nisbatan 27,4 s/ga ko'payishini tashkil etib, har bir gektar hisobiga 1681550 so'm sof daromad olishni va rentabellik darajasi 168,15 % bo'lishini ta'minladi.

V. FERMER XO'JALIKLARIDA MINERAL O'G'IT QO'LLASHNING EKOLOGIK MUAMMOLARI

Inson hayoti, uning sog'ligi, ish qobiliyati atrof-dagi tabiatning holatiga ko'p tomonlama bog'liqdir.

Atrof-muhitning asrlardan buyon insonga ko'rsatib kelgan salbiy ta'siri tabiiy ofatlar yoki epidermiya bilan bog'liq edi.

Inson bu omillarning ko'pchiligi bilan kurashish usullarini masalan, yuqumli kasalliklarga qarshi ko'rashish usullarini o'rganib oldi.

Ta'kidlash lozimki, fan-texnika revolyusiyasi bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy ishlab chiqishning o'sishi atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmoqda: ichimlik suvlar ifloslanmoqda, dunyo okeanlari, yer atmosferasi zaharlanmoqda, yerning yashil maysa qatlami bo'zilmoqda, tuproq unumdorligi, mikroflorasi va faunasi yo'q qilinmoqda, ekin dalalaridagi chuvalchanglar deyarli yo'qotildi. Umuman olganda, tabiatning noyob boyligi bo'lgan o'simlik va hayvonot olami xavf ostida qolmoqda. Natijada butun olam mohiyati bilan energetik va sosial krizisga teng bo'lgan ekologik krizisga yuz tutmoqda.

Birinci marta 1930 yilda, Belgiyada, havoning ifloslanishi natijasida ommaviy kasallanish qayd etilgan bo'lsa, 1952 yilda Londonda ushbu kasallik tufayli 4000 kishi vafot etdi. Atmosfera havosida changlar, uglevodlarning fotokimyoviy reaksiya mahsulotlari, azot oqsillarning bo'lishi, nafas olish organlari kasalliklarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda, surunkali bronxit kasalligidan o'lim har o'n ikki yilda ikki marta ortayotganligini ta'kidlash kifoya. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarining ma'lumotiga ko'ra, har to'rtta rak kasalligining uchasi atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog'liq.

Atrof-muhitning ifloslanishi hayotga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: yirik shaharlarda quyoshli kunlar soni kamayadi va o'simliklar nobud bo'ladi. Ifloslanishning eng katta xavfi shundaki, atrof-muhitdagi kimyoviy mutagenlarning ko'payishi natijasida inson organizmida xavfli mutasiyalarning paydo bo'lishi mumkinligidadir. Buning natijasida aqliy va jismoniy taraqqiy etmagan chaqaloqlar tug'ilishi ko'payadi va yangi oilalarda chaqaloq umuman tug'ilmaydi.

Ob-havo bo'yicha Xalqaro konferensiyaning bergan ma'lumotlariga ko'ra, uglerod (II) oksidi miqdorining ortishi yer shari haroratini $1,5-3^{\circ}\text{S}$ ga oishirish mumkin. Yer sirtining bunday isishi, qutblardagi muzliklarning beto'xtov erishiga va dunyo okeanlari suv balandligi 4-8 m ga ko'tarilishiga olib kelib, quruqlikni butunlay suv bosishiga olib kelishi mumkin. Yoki, ikkinchi bir dahshat stratosferadagi azon himoya qavatining bo'zilishi bilan bog'liq bo'lib, stratosferadagi azon o'g'itlardan ajralib chiqadigan moddalarning oksidlanishiga sarf bo'ladi.

Mutaxasislarning ma'lumotlariga ko'ra, Yerni quyosh reaksiyasidan himoya qilib to'rgan azon (balandligiga ko'ra 15%) himoya qavatining bo'zilishi, barcha tirik organizmlarni radiasion o'limga mahqum etishi mumkin. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida erishilgan muvaffaqiyatlar ko'p jihatdan o'g'it ishlatish, undan foydalanish va qo'llash usullari bilan bog'liqdir. Chunki Birlashgan Millatlar tashkilotining ma'lumotiga ko'ra jaxon qishloq xo'jaligidan olinayotgan hosilning o'rtacha 50%i mineral o'g'itlar zimmasiga to'g'ri kelmoqda. Shu sababli ham kishi boshiga bir yilda o'rtacha 9 kg azot, 9 kg fosfor va 9 kg kaliy o'g'iti ishlatish kerak deb hisoblansa, u holda mineral o'g'it ishlab chiqarishni ikki barobar ko'paytirish kerak bo'ladi.

Agar gektariga solinadigan mineral NPK o'g'itlarning o'rtacha 100 kg/ga deb olsak unda hozir mavjud ekin maydonlarini o'g'itlash uchun har yili 150 mln.t. o'g'it ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Ammiakli formadagi azotli o'g'itlar atrof-muhitni ifloslantirib, suvdagi miqdori 0,02 mg/l bo'lganda, o'ta zaharli hisoblanadi. Atrof-muhitni ammiakli shakldagi azotli birikmalar bilan ifloslantiruvchi asosiy manbalar parrandachilik chorvachilik fermalari va shahar chiqitlaridir. Bu chiqitlarda tarqalayotgan nitrat (NO_3) miqdori tuproqda 380-400 kg/ga, ammiak (NH_3), miqdori esa 2000-2300 kg/ga qadar yetishi mumkin. Faqat yomg'ir suvlari bilan 13-15 kg/ga gacha azot tuproqqa tushmoqda. Azot muammosini hal etishning eng asosiy yo'llaridan biri, tuproqda biologik azotni ko'paytirish bo'lib, yomg'ir chuvalchaglari, azot to'plovchi mikroorganizmlar va dukkakli o'simliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. G.Z.Kuk va R.Vilyams ma'lumotlariga ko'ra, bir gektar yerni organik azot bilan to'la

ta'minlash uchun 2500 bosh tovuq yoki 250 bosh kurka yoki 25 bosh cho'chqa yoki 2-3 bosh sigirdan yil davomida chiqqan chiqitlarni solish yetarlidir.

Tuproqning og'ir metallar bilan ifloslanish manbalarini asosan, metall ishlab chiqarish sanoati chiqindilari, turli yoqilg'ilarning yonish maxsulotlari, avtomobil dudlari va chiqindi gazlar, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan ximikatlar va boshqalar tashkil etadi. Og'ir metallarga qo'rg'oshin, vanadiy, xrom, marganes, kobalt, nikel, mis, rux, vismut, molibden, surma, kadmiy, temir va boshqalar kiradi.

Atrof-muhit uchun xavflilariga simob, qo'rg'oshin, kadmiy, mishyaq selen, fluor kirsa, ular ichida o'ta xavflilari simob, qo'rg'oshin va kadmiy hisoblanadi.

Ko'mir, neft, gaz va boshqa bir qator yoqilg'ilardan foydalanish shu darajada oshib ketganki, atrof-muhitni metall ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan bir necha bor ortiq ifloslantirmoqda. Avtomobil dudlari va tashlandiq gazlari orqali tuproqqa xar yili 200-250 ming t. qo'rg'oshin tushadi. Shuningdek, og'ir metallar biosidlar va mineral o'g'itlar bilan ham tuproqqa tushadi.

Atrof-muhitni sofliğini ta'minlash allaqachonlar davlatlar doiralaridan tashqariga chiqqan xalqaro muammodir. Landshaft, qobiq, bir butun daryolar turli davlatlar chegarasini kesib o'tib, bir davlat xududidagi o'rmonlar, dengiz va ko'llar ikkinchi bir davlat xududiga ta'sir ko'rsatadi. Atmosfera chegara nimaligini bilmaydi. Shuning uchun ham «Inson va tabiat» muammosini faqat Xalqaro ko'lamda hal etish maqsadga muvofiqdir. Tabiiy muhit muammosi bo'yicha davlatlararo hamkorlikni faqat tinchlik sharoitidagina amalga oshirish mumkin.

VI. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investisiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integrasiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv va globallashtiruvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy

larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirish taqozo etiladi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida keng va batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, mazkur inqiroz oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar bayon qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay 2008 yilda erishilgan ijobiy natija va yutuqlar baholanib, respublikamizdagi iqtisodiy salohiyatdan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Asarda O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish shva jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan:

1) mamlakatimizda qabul qilingan 2009-2012 yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;

2) tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikasiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

3) qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'zni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xo'jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;

4) aholi bandligini ta'minlash, uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;

5) mamlakatni modernizasiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;

6) banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar orqali erishilgan natijalari to'g'risida to'xtalar ekan, Prezidentimiz o'tgan yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan er maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirilganligini, dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda etakchi bo'g'inga – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylanganligini ta'kidlab o'tdilar.

Fermer xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarning uzoq davrli tajribasida o'zining samaradorligi, raqobatbardoshligi, bozor kon'yunkturasiga tez moslasha olishi kabi xususiyatlarini namoyon eta oldi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda ham fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilib, ular faoliyatining zarur iqtisodiy shart-sharoitlari yaratildi, me'yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fermer xo'jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. Fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi bosqichma-bosqich va izchillik asosida olib borildi.

Prezidentimiz o'z asarlarida mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirilganligi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotganligiga alohida e'tibor qaratdilar.

Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008 yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini etishtirish uchun 1 trillion so'm, jumladan, paxta tayyorlashga – 800 milliard so'm, g'alla etishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009 yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so'm yo'naltiriladi. Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan Fond hisobidan ushbu maqsadlar uchun o'tgan yili 43 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan bo'lsa, joriy yilda 58 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ana shunday e'tibor va amaliy yordam tufayli 2008 yilda fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishdagi ulushi sezilarli darajada oshdi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi paxta (99,1%) va g'allaning (79,2%) asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilmoqda. Dehqon xo'jaliklari esa ustun ravishda sut (96,8%), chorvachilik va parrandachilik mahsulotlari (95%), kartoshka (83,4%) va sabzavot (66,5%) mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Uzum, meva va rezavorlar, poliz ekinlari ham fermer, ham dehqon xo'jaliklari tomonidan deyarli bir xil salmoqda yetishtirilmoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalari boshqa shakllarining mahsulot yetishtirish hajmidagi ulushi yildan-yilga qisqarib bormoqda. 2008 yilda ular tomonidan chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarining 2,5%, uzumning 2%, meva va rezavorlarning 1,5%, poliz ekinlarining 1,4%, g'allaning 1,3%, paxtaning 0,9% yetishtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi F-3077-son «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi doirasida ko'rilgan tashkiliy choralar va amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2008 yilning 1 oktyabriga qadar

mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 219976 ta fermer xo'jaligi yer uchastkalari maqbullashtirilib, ularning umumiy soni 105033 tani tashkil qildi va fermer xo'jaliklariga jami 5 mln 860,1 ming gektar yer maydoni biriktirib berildi yoki bunda bitta fermer xo'jaligiga o'rta hisobda ilgari 27,0 gektar o'rniga amalda 56,0 gektar yer maydoni to'g'ri kelmoqda. Shundan paxtachilik va g'allachilik yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari soni 47,6 mingta bo'lib, ularga 4 mln. 390,1 ming gektar yoki bitta fermer xo'jaligiga o'rtacha 92,0 gektar yer maydoni uzoq muddatga ijaraga berildi. O'tgan yilda amalga oshirilgan bu kabi o'zgarish va islohotlar joriy va kelgusi yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligining oshishi hamda uning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga ishonchli zamin yaratdi.

VII. MAMLAKATNI MODERNIZASIYA QILISH, KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA USTIVOR VAZIFALARI.

Prezidentimiz Islom Karimov parlament qo'shma majlisidagi ma'ruzasida parlament tomonidan amalga oshirilgan erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga ikki palatali parlament faoliyatidagi ayrim kamchilik va nuqsonlar foydalanilgan qolib ketgan imkoniyatlar haqida ham o'z fikr va mulozalarini bayon qiladi. Albatta bu oliy majlisning kelgusi 5 yillik faoliyatini asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab olinayotgan bir sharoitda muhim ahamiyatga ega.

Kamchilik va nuqsonlar foydalanilmay qolgan imkoniyatlar, hamda va ustuvor yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat qilib ko'rsatilgan.

Birinchidan, qonunchilik palatasi faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri uning qonun ijodkorligi ishlari bo'yicha chuqur va har tomonlama puxta ishlab chiqarilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ijtimoiy – iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy ishlarni mo'ljallangan o'z dasturlariga ega emasligida ko'rinadi.

Bu ko'pincha qonunlarning aniq bir tizimiga rioya qilmagan holda ularning qonunchilik tashabbusi hududiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan kiritilishiga qarab qabul qilishga olib kelayotgan sabablaridan biridir.

Ikkinchidan deputatlar korpusining sustkashligi tufayli iqtisodiy siyosiy qonunida, sanalari jadal rivojlanayotgan islohatlarni amalga oshirish uchun hayotiy zarur bo'lgan qonunlar kiritilmagan.

Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ga qonun loyihasidan atiga 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan xolos.

Ayni paytda 42 ta qonun loyihasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan 160 dan ziyod qonun loyihasi esa mamlakat hukumati (vazirlar mahkamasi) tomonidan kiritilgan bo'lib ularning aksariyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan farmonlar munosabati bilan ijrosini ta'minlash munosabati bilan taqdim etilgan.

Uchinchidan, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini tubdan yaxshilash talab etiladi, ularning ko'pchilik amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish tuzatish va

qo'shimchalar kiritilishiga qaratilgan bo'lib kodeksikasiyalash tavsifiga, ya'ni muayyan darajada tizimlashuv majmuiga ega emas qabul qilinadigan, qonun loyihalarida amaldagi qonun hujjatlaridan farq qilingan tafovutlarga yo'l qo'yilgan boshqa hujjatlarga havola qilish holatlari ko'p asosiy kamchiligi shundaki qabul qilinadigan qonunlarida aksariyat o'rinlarida ana shu hujjatlarning hayotga tadbiq etilishini ta'minlaydigan prosessual mexanizmlarning mavjud emasligida ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z-o'zidan ushbu hujjatlarning qo'llanilishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi, qonunlarning ijro etilmasligiga hududiy normalarning oshkor qilinishiga hududiy qo'llash ahamiyati samaradorligining pasayishiga olib keladi.

To'rtinchidan, qonunda kuzda tutilgan deputatlik nazorati va hududni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatish shakllaridan sust foydalanilmoqda. Qonunchilik palatasi o'tgan davr faoliyatida doim bir nechta xususan inovasion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish kimyo sanoat korxonalari qurilishini jadallashtirish va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha parlament so'rovi amalga oshirilgan, bu yetarli emas albatta.

Beshinchidan, parlament deputatlarining o'z saylov oldidagi faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash talab etiladi.

Oltinchidan, qo'yi va yuqori palatalar amaliy faoliyatining dastlabki davrida har ikki tomonning o'z amlisiylarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar ko'rsatiladi.

VIII. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING IJTIMOIIY IQTISODIY AHAMIYATI VA MAZMUNI

Ishlovchi kishi havf manbaiga bevosita tekkanda yoki undan ma'lum oraliqda turganida jarohat olishi mumkin. Havfli doira deganda odamning hayoti va salomatligi uchun xavfli ishlab chiqarish omili doimo ta'sir etib turadigan yoki vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan makon (joy) tushuniladi.

Havfli doiraga misol tariqasida yuk ko'tarish vositalari bilan siljitiylayotgan yuk atrofida, aylanayotgan zanjirli, tasmali va kranli uzatmalar atrofida joy tushuniladi. Mashinalarning aylanayotgan qismlaridagi tashqariga chiqib turadigan elementlar (boltlar, shpilkalar, shplintlar) ayniqsa, havfli doira hisoblanadi, ular ishlayotgan kishining sochini, kiyimini ilashtirib ketishi mumkin. Mashinalarning qismlari bir - biriga qarab aylanganda, (paxta terish mashinalari shpindeli barabanlarining yonma-yon joylashgan juftlari) havfli doiraga tortib ketish havfi tug'iladi, havfli doiralarning o'lchamlari fazoda o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

Hamma qishloq ho'jaligi korxonalariga yetkazib beriladigan har qanday qishloq xo'jalik mashinasi, agregati, mexanizmi va uskunalari baxtsiz hodisalarning oldini olinishning zamonaviy vositalari bilan jihozlanadi. Mehnat havfsizligi to'siq, tormoz, blokirovka, saqlash qurilmalari, signalizasiya, shaxsiy himoya vositalarini ishlatish, shuningdek, ularning yaxshilanishi nazorat qilish bilan ta'minlanadi.

To'siq qurilmalar havfli doiralarni izolyasiyalash uchun oddiy, ishonchli va arzon to'siq qurilmalar keng ko'lamda ishlatilmoqda. To'siq qurilmalari odam bilan havf orasida to'siq yaratish uchun xizmat qiladi. Ular qanday maqsadga mo'ljallanganiga qarab har xil konstruksiyada bo'ladi.

Saglovchi qurilmalar Mashina va uskunalarga qo'yiladigan mavjud talablarga muvofiq har bir mashina, traktor yoki agregatda avariya holidagi ish rejimiga mo'ljallangan saqlash qurilmalari bo'lmasa, bunday mashina ishga yaroqli emas, deb hisoblanadi. Saqlash qurilmalarining ishlash prinsiplari nazorat qilinadigan parametr (zo'riqish, bosim, temperatura va x.k) ruxsat etiladigan chegaradan chiqqanda uskunaning avtomatik to'xtatishga asoslangan.

Tormozlash qurilmalari mashina va uskunalarining harakatlanayotgan (aylanayotgan) elementlarini tez va asta-sekin to'xtatish uchun tormozlash

qurilmalari ishlatiladi. Bundan tashqari, ular mashinalarni qiyaliklarda tutib turish, ko'tarilgan yukning o'z-o'zidan pastga tushib ketishidan saqlash maqsadida ham ishlatiladi.

Blokirovka qurilmalari. Blokirovka – bu mexanizmlarni yoki ularning qismlarini muayyan holatda ishonchli mahkamlashni ta'minlaydigan vositalardir. Blokirovka qurilmalari mexanizm va mashinalarda boshqa saqlagich vositalarning bo'lishi ishlovchining havfsizligini ta'minlay olmaydigan hollarda qo'llaniladi.

Signalizasiya. Qo'llaniladigan signalizasiya qurilmalari – mexanizm, agregat va mashinalarning ish jarayonining miqdori yoki sifat o'zgarishlaridan xabardor bo'lib turishga imkon beradi. Signalizasiya funksional vazifaga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: ogohlantiruvchi, nazorat qiluvchi va gaplashish signalizasiyasi.

Tuproqqa ishlov beradigan mashinalarda ishlashda havfsizlik choralari. Ishni boshlashdan oldin rostlash ishlari kompleksini bajarish lozim, bunda dastlab ish organlarining o'z-o'zidan pastga tushishi yoki tushib ketishining oldini oladigan chora-tadbirlarni ko'rish kerak.

Tuproqqa ishlov beradigan mashinalarning ish organlarini mashina ishlayotgan vaqtda tozalash mutloqo taqiqlanadi. Plug lemixlarini almashtirishdan oldin oldingi va ketingi korpuslarning dala taxtalari tagiga mustahkam tagliklar qo'yish zarur.

Diskli boronlar bilan ishlashda rostlash va tozalash ishlarini bajarishda disklarning o'tkir qirralari qo'lni kesib ketishi mumkin.

Tuproqqa ishlov beradigan agregat ishlayotgan paytda uning oldida turish va yurayotganida ramasiga o'tirish ta'qiqlanadi.

Quruq havoda shamol bo'layotganda traktorchi himoya ko'zoynagini taqib, ishlashi kerak. Kechasi ishlaganda agregat yetarli darajada yoritilgan bo'lishi lozim.

Ekin o'tqazish mashinalarini ishlatishda xavfsizlik choralari. Seyalkalar bilan ishlashga ekin ekish agregatlarida ishlash uchun tayyorlangan, seyalkalarni tuzilishini biladigan va havfsizlik texnikasidan instruktaj olgan kishilargina ruxsat etiladi.

Don ekish seyalkalarining urug' yashigiga boshqa narsalarni solish ta'qiqlanadi. Agregat harakatlanayotgan vaqtda mashinani rostlash, ekish apparatlariga urug' solish, shuningdek, markyorlarni ko'tarish va tushirish yaramaydi. Ish boshlanishidan oldin ekish apparatlarining qopqoqlari zashchelka bilan berkitilgan bo'lishi kerak.

Organik o'g'itlar solishda havfsizlik choralari. Organik o'g'itlar bilan ishlashga mexanizatorlarning xavfsizligi, asosan mashinani ishlatishdagi havfsizlik talablariga rioya qilishga bog'liq. Ishni boshlashdan oldin boltli birikmalarni tekshirib ko'rish, reduktorda surkov moyi borligini, transportyor zanjirlarning tarangligini tekshirishi va kardon valni qo'lda aylantirib, yuritma mexanizmlarda qisib (tishlab) qoladigan joylar yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak.

O'simliklarni ximoya qilishdagi texnik vositalardan foydalanishda xavfsizlik choralari. O'simliklarni kimyoviy himoya qilish uchun ishlatiladigan mashinalar (OVX-28, OShU-50 va x.k) mavsum boshlanish oldidan remont qilinadi, ishchi organlari (changlatgichlar) rostlanadi, neytral suyuqlikdan (suv, bor eritmasi va x.k.) foydalanib, ish holatida sinab ko'riladi va shaxsiy muhofaza vositalaridan ishlash haqidagi qisqacha yozuvlar tiklanadi.

Mineral o'g'itlar o'simliklarni o'sishini ta'minlovchi, pestisidlar, zararsizlantiruvchi va boshqa kimyoviy vositalar o'simlikshunoslik amaliyotiga keng kirib kelgan. Ular yuqori hosil olishni va saqlashni ta'minlaydi. Biroq bu moddalar u yoki bu miqdorda odamga va atrof - muhitga xavflidir. Kimyoviy moddalarning ta'siri odamni ular bilan bevosita aloqasi natijasida (aralashmalar tayyorlashda; urug'larga, tuproqqa, o'simliklarga ishlov berishda, ishlov berilgan uchastkalarda ishlashi yoki bo'lishi va x.k.) va bilvosita – o'simlik, oziq – ovqat va ximikatlar bilan ishlov berilgan dalalardan olingan mahsulotlari orqali, shuningdek, hayvonot mahsulotlari orqali (go'sht, sut, tvorog, tuxum va x.k.) va o'simlik mahsulotlari yem sifatida ishlatilganda, ularning tarkibida nitrat va pestisidlarning miqdori me'yoriy ko'rsatkich darajasidan yuqori bo'lsa. Pestisidlar odam uchun mineral o'g'itlarga nisbatan xavfliroqdir. Ishlatilishiga qarab, pestisidlar insektisidlar (qurt-qumursqaga qarshi kurashish uchun), akarasidlar (kanaga), rodensidlar (zararli kemiruvchilarga), fungisidlar (zamburug' kasalliklari bilan), bakterisidlar (bakteriyalar), gerbisidlar (begona o'simliklarga) va boshqalar.

Pestisid va mineral o'g'itlar bilan zaxarlanishni oldini olish (profilaktika qilish) asosiy yo'llari, ular bilan ishlaganda me'yor, mehnat xavfsizligi va kollektiv saqlanish vositalarini ishlatish; agrotexnikaga, ekinlarga qayta ishlov berish va kimyoviy preparatlarni sarf qilish miqdoriga qat'iy rioya qilish; kimyoviy ishlovlarni

xalq yashaydigan joydan, molxonalardan, suv havzalaridan kerakli uzoqlikda olib borish, shamolning ruxsat etilgan tezligida ishlov berish; hosilni terib olishgacha ekinlarga berilgan oxirgi kimyoviy ishlov muddatini saqlash; o'rganilgan va faqat ruxsat etilgan preparatlardan foydalanish. Granulangan shakldagi pestisidlardan foydalanish mehnat sharoitlarini yaxshilashda ijobiy natijalarni beradi.

Omborxona binolarida tabiiy va mexanik ventilyasiyalashni, omborchiga alohida xona va qo'shimcha xonalar hojatxona, dushxona, shaxsiy uchun xona vositalari saqlanishi uchun, suv, sovun, sochiq, aptechkalar va boshqalar uchun;

Qoplangan va qoplanmagan mineral o'g'itlar alohida bo'limlarda saqlanadi, qoplanmaganlarni g'aram qilib balandligi 2 metrgacha (qotib qolmagan o'g'itlar 3 m gacha) to'plab qo'yiladi, qoplanganlari esa tagidan namlik o'tmasligi uchun taglik qo'yib, qoplarni bir-birini ustiga g'aram qilib taxlanadi. G'aram orasidagi oraliqlar 3 m dan kam bo'lmasligi kerak (mexanizmlarni ishlashi va odamlar o'tishi uchun), g'aramlardan ombor devorigacha bo'lgan oraliq 1 m dan kam bo'lmasligi kerak. G'aramning tepasi bilan omborning shipi orasidagi oraliq 0.4 m dan kam bo'lmasligi kerak. Suyuq mineral o'g'itlar maxsus idishlarda saqlanadi. Pestisidlar kimyoviy korxonalardan (bochkalarda, barabanlarda konistrlarda, shisha idishlarida, qoplarda, yashiklarda, qutilarda) keltiriladi va ularni faqat yassi yoki tirkab qo'yiladigan poddonlarda, stilajlarda bir-birini ustiga qo'yilib saqlanadi, har xil pestisidlar boshqa-boshqa g'aramlarda saqlanadi. Bular orasidagi masofa 1 m dan kam bo'lmasligi kerak. Hamma turdagi idishlarning ustida preparatning nomi, moddaning belgilangan ta'sirini foyizi, pestisidning guruhi, xavfsizlik belgisi, og'irligi netto shuningdek, «Yong'indan xavfli» yoki «Portlash xavfi bor» va ogohlantiruvchi-taxitadagi chiziq razmeri 20x4 sm gerbisidlar qizil, defoliantlar oq, nematosidlar – qora, fungisidlar – yashil, dorilovchi moddalar – zangori, zoosidlar – sariq rangda bo'ladi. Omborchi pestisidlarni faqat xo'jalik rahbari yoki muovininining yozma ravishda berilgan farmoyishiga asosan o'simliklarni himoya qilish ishlariga javobgar shaxslarga bir kuniga yetarli miqdorda beriladi. Ish tugagandan keyin qolgan pestisidlar va bo'shagan taralar qayta omborga topshiriladi. Ishdan chiqqan qog'oz yoki yog'och taralarni maxsus maydonlarda yoqib tashlanadi. Omborga keladigan va chiqadigan

pestisidlar shnurlangan va raqamlangan kirim-chiqim daftarida ro'yxatga olinadi va omborxonada saqlanadi.

Pestisidlarni transportda tashish javobgar shaxs ishtirokida, maxsus yoki shu maqsad uchun moslashtirilgan transportda shaxs ishtirokida va faqat soz va yaxshi yopilgan taralarda amalga oshiriladi. Agar tara buzilib ketsa, darhol transport to'xtatiladi va buzqlik tuzatiladi, buning uchun kerakli hamma materiallarga, asboblarga va shaxsiy himoyalanish vositalariga ega bo'lish kerak.

Mineral o'g'itlarni tarasiz (uyma holda) transportda tashishga ruxsat etiladi. Faqat changlanib ketish xavfini olgan holda brezent bilan yopib qo'yish lozim.

Suyuq o'g'itlarni ishlatish joylariga avtosisternalarda va yuk tashuvchi mashinalar ustida hajmiy idishlarda yoki transport bochkalarida yetkazib beriladi. Suyuq mineral o'g'itlarni transportda tashish uchun ishlatiladigan hajmli idishlar zich yopiladigan bo'lishi kerak, havo kiradigan va saqlovchi klapanlarga, ajratuvchi chizig'iga va yozuvchiga ega bo'lishi kerak.

IX. 2012 YIL VATANIMIZ TARAQQIYOTINI YANGI BOSQICHGA

KO'TARADIGAN YIL BO'LADI

Davlatimiz rahbarining ma'ruzasida jahonda umume'tirof etilgan rivojlanishning "o'zbek modeli"ni hamda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlarini izchil amalga oshirish natijasida, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan inqirozli holatlarga qaramay, 2011 yilda mamlakat iqtisodiyotini o'stirishning yuqori sur'atlari barqarorligi va makroiqtisodiy muvozanatlilik taminlanganligi qayd etildi.

Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirlariga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari obro'li xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar tomonidan yuqori baholanayotganligi alohida ta'kidlandi. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2011 yil noyabr oyida mamlakatimizga kelgan missiyasining bayonotida O'zbekiston izchil o'sishga erishganligi va global moliyaviy inqirozga qarshi muvaffaqiyatli choralar ko'rayotganligi qayd etilgan, shuningdek, o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari saqlanib qolishi haqida ijobiy prognoz bildirilgan.

Shuningdek, ma'ruzada 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning quyidagi eng muhim ustuvor vazifa va yo'nalishlari belgilab berildi:

birinchidan, yuqori va izchil o'sish sur'atlarini saqlash, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash;

ikkinchidan, iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha dastur tayyorlash va uni amalga oshirish;

uchinchidan, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish;

to'rtinchidan, transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

beshinchidan, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha dasturni amalga oshirish;

oltinchidan, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish muammosini hal etish;

yettinchidan, 2012 yil – “Mustahkam oila yili” umumdavlat dasturini hayotga tatbiq etish.

Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari oldiga iqtisodiyotni o'stirishning yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolishni, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlashni, shuningdek, iqtisodiyotni izchil isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiyalashni chuqurlashtirish, yangi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, mavjud quvvatlarni modernizasiyalash va texnologik jihatdan yangilash jarayonini jadallashtirish hisobiga mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishni taminlaydigan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Joriy yilning “Mustahkam oila yili” deb elon qilinishi munosabati bilan 2012 yilga belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada rivojlantirishda oilaning ahamiyatini yuksaltirish, har bir oilaning moddiy farovonligini oshirish muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan etibor va g'amxo'rlik kuchaytirilishi zarurligiga alohida etibor qaratildi.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishi va erishilgan natijalar

2011 йилда мамлакат ялпи ички маҳсулотининг 17,1 фоизи қишлоқ хўжалиги ҳиссасига тўғри келди. Аграр тармоқ республикамиз аҳолисининг салмоқли қисмини иш ўринлари билан таъминлаб келмоқда.

Шу жиҳатдан қишлоқ хўжалигини ривожлантириш масаласи республикамиз иқтисодиётини ривожлантиришнинг муҳим устувор йўналишларидан бири сифатида эътироф этилмоқда.


Энди, рухсатингиз билан, қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган ишларимизнинг натижалари ҳақида қисқача тўхталиб ўтмоқчиман.

Бу ҳақда гапирганда, аввало, мураккаб об-ҳаво ва иқлим шароити туфайли вужудга келган муаммо ва қийинчиликларга қарамасдан, қишлоқ меҳнаткашларининг фидокорона меҳнати ҳисобидан 2011-йили энг

муҳим қишлоқ хўжалик маҳсулотлари давлат хариди бўйича шартнома мажбуриятлари нафақат бажарилгани, балки ортиғи билан бажарилганини таъкидлаш ўринлидир.

Ислом Каримов

Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, (% da).



Ўтган 2005-2011 йиллар оралиғида қишлоқ хўжалиги ялпи маҳсулотининг ўртача йиллик ўсиш суръатлари ўсиб бориш динамикасига эга бўлди


бу кўрсаткич 2005 йилдаги 105,4 %ни ташкил этган)

2011 йилда 106,6 %га тенг бўлди.

Мамлакатимизда ўтган йили 6 миллион 800 минг тонна галла, 3 миллион 500 минг тоннага яқин пахта, 8 миллион 200 минг тоннадан ортиқ сабзавот ва полиз, қарийб 3 миллион тонна боғдорчилик маҳсулотлари етиштирилди. Шу билан бирга, 6 миллион 600 минг тонна сўт, 1 миллион 500 минг тоннадан ортиқ гўшт, 3 миллиард 500 миллион донадан зиёд тухум тайёрланди.

Ислом Каримов

RESPUBLIKA BO'YICHA ASOSIY TURDAGI QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARI HOSILDORLIGINING O'ZGARISHI DINAMIKSI, S/GA




O'ZBEKISTONDA AHOLI JON BOSHIGA ASOSIY TURDAGI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI, KG

Mahsulotlar turi	1991 yil	2011 yil	2011 yil 1991 yilga nisbatan, % da
Meva	24,0	60,1	250,4
Uzum	24,0	35,1	146,2
Sabzavot	138,6	225,0	162,3
Kartoshka	15,1	60,5	400,6
Poliz	39,0	42,0	107,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Республикаимиз қишлоқ хўжалигида босқичма-босқич амалга ошириб борилаётган иқтисодий ислохотларнинг боришини таҳлил этиш асосида уларнинг қуйидаги асосий йўналишларини ажратиш кўрсатиш мумкин:



Пухта ўйланган дастур асосида 2008-2010 йиллар давомида ўтказилган мақбуллаштириш жараёни натижаларига кўра фермер хўжаликларининг ер майдонлари ҳажми мақбуллаштирилди.

Амалга оширилган мақбуллаштириш жараёни натижасида 2011 йил якунига келиб республикаимиздаги фермер хўжаликларининг сони 215 776 тадан 66134 тагача ёки 69,4 % га камайтирилди, бунда бир фермер хўжалигига тўғри келувчи ўртача ер майдони ҳажмини 27,4 гектардан 80,1 гектаргача кўпайтиришга эришилди.

Ўртача бир фермер хўжалигига тўғри келадиган ер майдонларини тармоқлар бўйича олиб қарайдиган бўлсак, бу кўрсаткич пахтачилик ва ғаллачиликда 106,3 гектарга, сабзавотчиликда ва поллизчиликда 23,5 гектарга, боғдорчилик ва узумчиликда 13,1 гектарга, чорвачиликда 205,0 гектарга тенг бўлмоқда

Ислохотлар давомида фермер хўжаликларини молия-кредит ва солиқ механизмлари орқали қўллаб-қувватлашнинг самарали тизимига асос солинди:

давлат эҳтиёжи учун харид қилинадиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи фермер хўжаликлари учун имтиёзли кредитлаш тизими йўлга қўйилди

фермер хўжаликлари учун ерларнинг унумдорлигига боғлиқ бўлган ягона ер солиғи тўлаш бўйича имтиёзлар жорий этилди;


фермерларга техника воситаларини имтиёзли шартларда лизинг асосида етказиб бериш тартиби жорий этилди;

фермер хўжаликлари учун имтиёзли кредитлаш тизими яратилди;

балл-бонитети паст ерларда пахта ва ғалла етиштирадиган фермер хўжаликларининг зарарини қоплаш мақсадида уларга молиявий ёрдам бериш тизими жорий этилди;

ирригация ва мелиорация тизимини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш амалиётга жорий этилди.

Respublikamizda 2003-2011 yillarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalariga ajratilgan imtiyozli kreditlar, mln. so'mda



Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида қишлоқ хўжалиги соҳасида бир қатор солиқ ва божхона имтиёзлари қўлланилади:

янгидан ташкил этилган пахта, ғалла, сабзавот, полиз, картошка ва бошқа маҳсулотлар ишлаб чиқариш фермер хўжалиқларига 2 йил муддатга, боғдорчилик ва узумчиликка ихтисослашган фермер хўжалиқлари 5 йил муддатга ягона ер солиғи тўлашдан озод этилган

фермер лойиҳа асосида ўз ҳисобидан ўзлаштирган ер учун беш йил давомида ягона ер солиғи тўлашдан озод қилинди

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 17 мартдаги 304-сонли қарорига асосан чет эл техникалари олиб келишда қўшилган қиймат солиғи ва божхона тўловлари, ҳамда чет эл техникалари учун эҳтиёт қисмлар олиб келишда қўшилган қиймат солиғидан озод этилган

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 мартдаги 308-сонли қарорига мувофиқ чет эллардан чорва моллари олиб келишда қўшилган қиймат солиғи тўловларидан озод этилган

2006-2011 YILLARDA RESPUBLIKA BO'YICHA YaNGI SOTIB OLINGAN QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARI

Texnikalar nomi	2006 yil	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2006- 2011 yillar davomida jami
Traktorlar, jami	2211	1652	2231	3007	2671	2124	13896
Haydov traktorlari	634	164	454	191	378	546	2367
sh.j.yuqori unumli	2	6	6	36	83	297	430
Chopiq traktorlari	1182	1293	1174	1697	1359	1098	7803
Traktor tirkamalari	368	250	348	1421	691	882	3960
Kultivatorlar	503	279	440	1433	633	315	3603
Chigit seyalkalari	352	178	237	215	320	552	1854
Pluglar	130	90	117	244	67	153	801
Don o'rish kombaynlari:	116	93	332	123	167	245	1076
sh. j. yuqori unumli	55	52	86	110	167	245	715

QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган аграр тармоқни ривожлантиришнинг истиқболли дастури қуйидаги энг муҳим йўналишларни ўз ичига олади:



Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohatlarni uzviy ravishda amalga oshirishda Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan ustuvor yo'nalishlar biz kabi mutaxassislarning asosiy dasturiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolishi lozimligi eng muhim burchimizdir.

X U L O S A L A R

1. Qo'shrobd tumani shaaroitida ekilgan qattiq bug'doyning azotli oziqlantirilganda o'simlikni o'sishi va rivojlanishi yaxshi bo'lganligi quyidagi azotli o'g'itlar normasi oshirilgan variantda $N_{180} R_{100} K_{60}$ yaxshi natija beradi.

2. Qattiq bug'doyning Aleksandrovka navi bizni ilmiy ishimizda $N_{180} R_{100} K_{60}$ variantida o'simlikni azotli oziqlanish rejimi optimallasadi va o'simlik hosil to'plashiga qulay sharoit yaratiladi. Shu variant $N_{180} R_{100} K_{60}$ oziqlantirilganda variantda hosildorlik 44,7 s/ga, oqsil miqdori 18,8% ga, klekovina miqdori 36,6% ga oshganligi kuzatildi.

3. Aleksandrovka navi sug'oriladigan sharoitda $N_{180} R_{100} K_{60}$ berilganda o'simlikning hosildorligi, hosil strukturasi, hosil tarkibidagi oqsil va klekovina miqdori oshadi.

4. $N_{180} R_{100} K_{60}$ variantda hosildorlik 44,7 s/ga, rentabillik darajasi 168,15 % oshishini, sof daromat 1681550 sum/ga oshishiga olib keldi.

Bu agrotexnik tadbir iqtisodiy inqirozni oldini olishga yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Dehqonchilik taraqqiyoti-farovonlik manbai" Toshkent – «O'zbekiston» - 1994, 78 – 80 b.
2. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari". Toshkent 2009 y
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxoatlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent «O'zbekiston», 1995, 269 b.
4. Karimov I.A. «2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.» Toshkent «O'zbekiston», 2011.
5. Almanov M.A. «O'zbekiston sharoitida bug'doyni tashqi muhitni noqulay sharoitlariga chidamliligi». Toshkent, «Fan»-1978, 92 b.
6. Amanov A.O. O'zbekiston «g'alla» IChB da yaratilgan qishloq xo'jalik ekinlari navlari va texnologiyalari. «G'alla» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi. 1997. 46 b.
7. Amanov A.R., Siddiqov. g'allachiligimiz istiqbollari. //j. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi». №2, 2003,. b. 33 - 34.
8. Abdurahimov Sh. Mirzayev L. Ham don ham somon. //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2006 y. № 6, 19-b.
9. Atabayeva X., Esbolova M. Ozimaya pshenisa - ploshad pitaniya i uroжайnost. //J. O'zbekiston qishloq ho'jaligi - 2007 y. № 6, 17-b.
10. Ahmadjonov B. Hosil sifati nimalarga bog'liq? //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2006 y. № 4, 16-b.
11. Amonov A. Ustoychivost pshenis Uzbekistana k neblagopriyatnym faktoram sredy. Tashkent - 2001, 92-s.
12. Bo'riyev Ya., Abdullayev O. Oziqlantirish me'yorlarining kuzgi bug'doy hosildorligiga ta'siri. //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2007 y. № 3, 13-14-b.
13. Boboxo'jayev I.B., Uzaqov P.U. «Tuproqshunoslik». Toshkent 1995, 42 b.
14. Bobomirzayev P.X. Osobennosti formirovaniya kornevoy sistemy myagkoy i tverdoy pshenisy v zavisimosti ot srokov poseva. // j. Uzbekskiy biologicheskiy jurnal. 2000 y. №1. s. 74-75.
15. Gulyakin I.V. Sistema primeneniya udobreniy.- M: "Kolos", 1988.- 137s.

- 16.**Gurevich N.G., Skoroxod A.O. Vlienie fosforных udobreniy na kukuruze. // Byull. VNI kukuruzы.-Dnepropetrovsk – 1985, №26 s.58-61.
- 17.**Dospexov B.A. Metodika polevogo opыta. M.,«Agropromizdat» - 1985.s.230-235.
- 18.** Dala tajribalariini o'tkazish uclubi.UzPITI, Toshkent. 135-b.
- 19.**Vlasyuk P.A. Biologicheskaya rol medi v rasteniyax i znachenije medных udobreniy v rasteniyevodstve. // V kn. Biologicheskaya rol medi. Moskva «Nauka», 1970. S. 224.
- 20.** Gayupov X.E. Mehnat muhofazasi. Toshkent. «Milliy ensiklopediyasi» 2004. 226 B.
- 21.**Gorelov Ye. P., Halilov N. O'simlikshunoslik. Toshkent, «Mehnat», 1990, 64 - 65 b.
- 22.**Dorofeyev N.F., Peshkova A.A. Kuzgi bug'doyni kuzgi vegetasiyasi davrida ildiz sistemasini rivojlanishi. // j. Don ekinlari. №3, 1997, 14 - 16 b.
- 23.** Qo'shrobod meterologiya va agrometerologiya kuzatish xizmati ma'lumoti, 2010-2011 yy.
- 24.** Dospexov B.A. Metodika polevogo opыta. M. «Kolos». 1985. s. 317-319.
- 25.** Zelenin N.N. Deystvie vysokokonsentrirovанных fosforных udobreniy na tipichnom serozeme //J. Agroximiya. – 1976, №4 s.37-39.
- 26.** Keldiyorova X.X., Xodjayev D.X. «Urojaynost i kachestvo zerna perspektivных sortov pshenisy v usloviyax Zarafshanskoy doliny». // j. «Zernovoye xozyaystvo». M .№5, 2003. s.16—17.
- 27.**Karpov A.N., Kalashnikov V.K. Effektivnost vozrastyushix doz fosforных udobreney na razlichных tipov pochv //J. Agroximiya.-2002, №5, s.13-17.
- 28.**Keldiyorova X.X. Bug'doy hosildorligi va sifati //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2004 y. № 8, 35-b.
- 29.**Lebedev S.I. O'simliklarni mineral oziqlanishi va fotosintezi yuqori hosil olish sifatida. U.K.X.A. Kiyev. №145, 1975. 128 -135 b
- 30.**Lomonosov P.I. Sug'oriladigan har bir gektar yerdan 70 s. hosil. // j. Dehqonchilik jurnali. №12, 1984, 33 - 34 b.

31.Laman N.A. va boshq. G'alla hosildorligini oshirish imkoniyatlari texnologiyasini amalga oshirish tartibi. Minsk. Fan va texnika. 1987. 224 b.

32.Lozinskiy L.K. - Lozina «Vliyaniye skorosti oxlajedeniya na biologicheskiye obyekte». st-169

33.Musayev B.S. «O'g'it qo'llash tizimi» Respublika o'quv uslubiyot markazi. T. 1998.

34.Matveyeva V.I., Lobanok M.P., Fedorenchik V.V. Assotiment promyshlennых form mikroudobreiy // J.Ximizasiya selskogo xozyaystva, 1991. № 2. 32-34 s.

35.Методы агрохимических анализов почв Средней Азии. Tashkent, SoyuzNIXI, 1973. – 145-s.

36.Musayev.B.S. Agrokimyo. «Sharq» nashriyoti-matbaa AKB. Toshkent-2001.253-254,271-275 b.

37.Nabiyeva X.A. Mikroelementы Co i Mo v oroshayemyх почвах Приаралья i их агрохимическая характеристика // Avtoref. diss. na sois. uch. step. kand. s.x. nauk. Tashkent, 2001. 24 S.

38. Naumkin B.N., Kostyuxin O.Ye., Anoshin B.G. «Vusokiy urojay zerna ozimoy pshenisy na Orlavshine». //j. «Zernovoye xozyaystvo» M. № 1, 2002, s. 14 - 16.

39.Ostrovskaya L.K. Fiziologicheskaya rol i osnovы primeneniya medных udobreniy. Kiyev, 1961.

40. Otaboyev G. Don mo'l bo'lsin desangiz. //j. «O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali» 1996, №1, b.

41.Piroxunov T., Ochilov E. O'g'it va kuzgi bug'doy hosildorligi. //j. «O'zbekiston qishloq xo'jalik». 1977, №1, 35 b.

42.Ruziyev O. Hosildorlik oshmoqda ammo... O'zbekiston janubida donchilikni rivojlantirish nimalarni talab qiladi? //j. «O'zbekiston qishloq xo'jalik» jurnali. №5, 1997, b. 31 – 32.

43.Razokov K.M. Metodika razrabotki normativov primeneniya mineralных udobreniy. // J. Xlobkovodstvo. – 1979, №12 s.23-25.

44.Raj Poroda. O'zbekistonda barqaror qishloq ho'jaligi amaliyoti uchun agrotexnologik yo'nalishlar. // G'allachilikning ilmiy-amaliy yechimlari. SEDDO'E ITI ilm.to'p.-2007, 15-25-b.

45.Rubinshteyn M.I., Suleymenov B.U. Effektivnost primeniya fosforных udobreniy. // Tr.Ryazan GAU – Ryazan, 2001.-s.297-299.

46.Sattorov J.S. Urug' va o'g'it me'yori.//J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 1999 y. № ,. 18-b.

47.Siddiqov R.S. Don sifatini yaxshilash.//J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2007 y. № 2, 19-b.

48.Smirnov PM., Muravin E.A. – Agroximiya. M., "Kolos", 1984

49. Saturnov M.P. Muragin E.A. Muraviv «Agroximiya». Toshkent-1984.

50.Simen M.G. Burmistrova T.S. Vliyaniye srokov poseva i udobreniy na kachestva zerna intensivных sortov ozimoy pshenisy v zone neustoychivogo uvlajeniya. Intensivные технологии производства зерновых i zernobobовых kultur, 1986. s.19-24.

51.Tojiyev M., Xujmanov O. Kuzgi bug'doy hosildorligini oshirishda urug'ni ekish me'yorlari va o'g'itlar miqdoriga bog'liqligi. // j. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi». № 3, 1998, 26 - 28 b.

52.Tojiyev M., Holiqov B., Qodirov E. Ma'qul me'yor. // j. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi». №1. 2000. 41 - 42 b.

53.Torikov V.Ye., Prudnikov. A.P., Melnikova O.V. Kanicheva V.I. Parachev V.P. «Uroжайnost i kachestvo zerna yarovoy pshenisy v zavsimosti ot udobreniy i norm высева семян. // j. Zernovoye xozyaystvo. 2003, №8, s.

54.To'rayev A., To'rayev R. Kuzgi bug'doyni qanday oziqlantirish kerak. //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi - 2003 y. № 2, 21-b.

55.Udachin R.A. O'rta Osiyo bug'doyi. Toshkent, Fan 1984 196 b

56.Xalilov N., Xodjaniyazova F. Vliyaniye norm i sposobov poseva na uroжайnost ozimoy pshenisy. // j. Selskoye xozyaystvo Uzbekistana. 2002, №6, s. 10 – 11.

57.Xalilov N.X. Vliyaniye normy poseva i dozy azotistых udobreniy na uroжай i kachestvo zerna intensivных sortov myagkoy pshenisy na polyвных

zemlyax Zarafshanskoy doliny. Uzbekskiy SSR. Avtref. Diss. kand. s.x. nauk. Samarkand. 1982, s. 21.

58.Halilov N.X. Nauchnyye osnovy vozdelvaniya pshenisy osennogo poseva na oroshayemyx zemlyax Uzbekistana. Avtref. Diss. dok. Nauk. Samarkand. 1994. s.76

59.Xafizov A.Sh. Iz opyta orosheniya ozimoy pshenisy v Alma-Atynskoy oblasti. Gidrotexnika i meliorasiya, 1988, № 11, s.93 – 97.

60.Xodjakulov T.X. O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida intensiv tipdagi yumshoq bug'doy va oziqa arpa seleksiyasi, ularni urug'chiligi va nav agrotexnikasi. Doktorlik diss. avtoref. Sankt - Peterburg, 1991, 36 b.

61.Halilov N., Bobomirzayev P., Daminov S. Kuzgi bug'doy yetishtirish texnologiyasini shakllantirish shartlari. // j. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1998, №5, 35 - 37 b.

62.Xoliqulov Sh.T. Vliyanie organicheskix i mineralnyx udobreniy na plodorodie oroshayemyx serozemov. //SamQXI ilm.to'p.-2005., 5-8-b.

63.Halilov N.X., Qobilov A. Kuzgi bug'doy hosildorligi nimalarga bog'liq? //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi -2002 y. № 5, 27-b.

64.Halilov N.X.,G'aybullayev M. Kuzgi bug'doy hosilini ekish muddatlariga bog'liqligi. // SamQXI ilm.to'p.2007. 31-33-b.

65.Xorazmiy A., Shodmonqulov Sh. O'g'it me'yor, sharoit va hosildorlik. //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi -2006 y. № 7,18-b.

66.Hoshimov F.H., Nazarov O.M. “ O'g'it qo'llash tizimi ” fanidan ma'ruzalar kursi. Samarqand. 2007. B. 77

67.Cherkasov S.A. Problema fosfora v zemledelie i effektivnost fosfornyx udobreniy. /Tr.VIUA.-1975.- s.35-38.

68.Shkolnik M.Ya. Mikroelementy v pitanii rasteniy // V kn. Fiziologiya sel'skoxozyaystvennyx rasteniy, t. 2, M., 1967.

69.Sheveluxa V.S. Q/x ekinlarini o'sish davriyligi va ularni boshqarish yo'llari. // j. «Zernovoye xozyaystvo». M. 1999, №11, s.8 11

70.Yurkin S.N. Balans azota fosfora i kaliya v usloviyax intensivifikatsii zemledeliya.- M.VNIITEISX.-1975.- s.30.

71. Yagodin B.A. Agroximiya Moskva VO «Agropromizdat» 1987.
72. Yanishevskiy F.V. Effektivnost razlichnykh form fosfora soderzhashchix udobreniy zavisimosti ot soderjaniya obnix korbonatov. // j. Agroximiya. - 1999, №8. - s.17-21.
73. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestriga kiritilgan navlarning tasnifi. Toshkent. 2006 y. 64-69, 112-125 b.
74. Qosimov A. Rentabellikka erishishning asosiy sharti. // j. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2001, № 3, 38 - 40 b.
75. Qurbonov G.K. Don mustaqilligi, unga erishish uchun nimalar qilish kerak. // j. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 1997, № 5, b. 24 - 29.
76. <http://www.strelina.ru> Mikroudobreniya
77. <http://www.agromage.com> Azotnyye udobreniya.
78. <http://www.cultinfo.ru> Pitaniye rasteniy.
79. <http://www.cultinfo.ru> Azot, fosfor, kaliy i mikroelementy.
80. <http://www.chemport.ru> Azotnyye mineralnaya udobreniya.

I L O V A L A R

**Tajriba maydonidagi qattiq bug'doy hosilining variantlar bo'yicha
B.A.Dospexov (1985) usulidagi dispersion tahlili**

1. Kuzgi bug'doy hosili, s/ga

Variant	Takrorlashlar, x				Ja'mi V	O'rtach a
	I	II	III	IV		
1	17,7	18,5	16,3	16,7	69,2	17,3
2	43,1	42,4	40,2	40,3	166	41,5
3	43,7	44,3	43,4	42, 6	174	43,5
4	45,6	47,5	40,3	45,4	178,8	44,7
ja'mi P	150,1	152,7	140,2	145	$\sum x = 588$	$\bar{x} = 36.75$

